

Fuqaro havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkiloti sertifikatini
PASPORTI

1.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning nomi:	Fuqaro havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkiloti sertifikatini
2.	Amalgashirilishi uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish talab etiladigan faoliyat (harakatlar):	Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish
3.	Ariza beruvchilar toifasi:	Yuridik shaxslar
4.	Ruxsat etish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organ:	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi ("O'zaviatsiya" agentligi)
5.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar:	a) ariza; arizada quyidagilar ko'rsatiladi: 1) arizani berish sababi: sertifikatni berish ☐ faoliyat sohasini kengaytirish ☐ faoliyat sohasini qisqartirish ☐ boshqa sabablar (ko'rsatilsin) _____ ☐ 2) talabgor to'g'risidagi ma'lumot: tashkilotning ro'yxatga olingan nomi; tashkilotning ro'yxatga olingan joyi, ro'yxat raqami; tashkilotning joylashgan joyi, manzili; tashkilotning tasdiqlangan faoliyat sohasi bo'yicha ishlarni bajarish manzili (davlat, shahar, aeroport nomi va boshqalar); telefon raqami / e-mail; tashkilot rahbarining lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi va bog'lanish uchun ma'lumotlari; sifat tizimiga nisbatan vakolatli shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi va bog'lanish uchun ma'lumotlari. 3) ma'lum qilinayotgan faoliyat sohasi haqida ma'lumot:

KLASS	BERILGAN RUXSAT		CHEKLOVLAR	DAVRIY TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH	OPERATIV TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH
	Toifa	Aviatsiya texnikasi yoki ishlarning turi			
HAVO KEMALARI:	A1	Uchib chiqish massasi 5 700 kg dan yuqori bo'lgan samolyotlar	Havo kemasi turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
	A2	Uchib chiqish massasi 5 700 kg dan yuqori bo'lmagan samolyotlar	Havo kemasi turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
	A3	Vertolyotlar	Havo kemasi turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
	A4	A1, A2 va A3 toifalariga taalluqli bo'lmagan havo kemalari	Havo kemasi turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
AVIATSIYA DVIGATELLAR I:	V1	Gaz turbinali dvigatellar	Dvigatellarning turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
	V2	Porshenli dvigatellar	Dvigatellarning turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
	V3	Yordamchi kuch qurilmalari	Qurilmalarning turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
KLASS	BERILGAN RUXSAT		CHEKLOVLAR	ATA / GOST 18675 bo'yicha kod	

		Toifa	Aviatsiya texnikasi yoki ishlarning turi		
	DEMONTAJ QILINGAN KOMPONENTLAR, YIG'ILGAN HOLDAGI ASOSIY AVIATSIYA DVIGATELI VA YORDAMCHI KUCH QURILMALARI BUNDAN MUSTASNO	S1	Kema kabinasini konditsionerlash va bosimini boshqarish tizimlari	Havo kemasi va/yoki komponentlar yoxud aniq komponentlar va/yoki tashkilotning faoliyat bo'yicha qo'llanmasida ishlab chiqarish imkoniyatlari ro'yxati bilan o'zaro havolalari va/yoki bajariladigan texnik xizmat turlari ko'rsatiladi	21
		S2	Avtopilot		22
		S3	Aloqa va navigatsiya jihozlari		23, 34
		S4	Eshiklar va lyuklar		52
		S5	Elektr toki bilan ta'minlash tizimlari		24
		S6	Maishiy va maxsus jihozlari		25, 38, 45
		S7	Dvigatel va yordamchi kuch qurilmalari tizimlari		49, 71 — 83
		S8	Havo kemasini boshqarish tizimlari		27, 55, 57
		S9	Yonilg'i — planer tizimi		28
		S10	Vertolyotning asosiy vintlari		62, 64, 66, 67
		S11	Vertolyotning transmissiyasi		63, 65
		S12	Gidrotizimlar		29
		S13	Asbob-jihozlar		31
		S14	Shassi		32
		S15	Kislorod jihozlari		35
		S16	Havo vintlari		61

		S17	Pnevmozizm lar	36, 37
		S18	Muzlashga qarshi va yong'inga qarshi tizimlar	26, 30
		S19	Derazalar	56
		S20	Planerning konstruksiya si	53, 54, 57
	MAXSUS ISHLAR TURI	D1	Putur yetkazmasda n nazorat qilish	Aniq ishlar yoki ish va xizmatlar turi ko'rsatiladi
		D2	Payvand va boshqalar	Aniq ishlar yoki ish va xizmatlar turi ko'rsatiladi
		b) talabgor tomonidan amalga oshirilgan, tashkilotning ma'lum qilinayotgan faoliyat sohasiga muvofiqligini tekshirish to'g'risidagi hujjat (bayonnoma, hisobot, dalolatnoma va boshqalar) nusxasi; v) kelishilgan tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanma; g) kelishilgan sifati bo'yicha qo'llanma; d) kelishilgan parvoz xavfsizligini boshqarish qo'llanmasi; e) rahbar xodimlarning shaxsiy ma'lumotlari, shuningdek, ularning ma'lumoti va ish tajribasi to'g'risidagi ma'lumotlar; j) ruxsat beruvchi xodimlarning ro'yxati; z) boshqa davlatlarning aviatsiya ma'muriyatlarini tasdiqlash (sertifikatlar) to'g'risidagi mavjud hujjatlar ro'yxati, mavjud bo'lsa.		
	6. Arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadiga n yig'im miqdori:	Texnik xizmat ko'rsatish tashkiloti xodimlari soni		Yig'im
		10 dan 49 gacha		BHMning 196,6 baravari
		50 dan 99 gacha		BHMning 294,9 baravari
		100 dan 499 gacha		BHMning 442,35 baravari
		500 dan 999 gacha		BHMning 663,5 baravari
		999 dan ortiq		BHMning 995,25 baravari
		Yig'imlar summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi: 10 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga; 11,25 foizi — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini ko'rsatganlik uchun, shuningdek, 0,5 foizi Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari ko'rsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga;		

		qolgan mablagʻlarning 60 foizi — vakolatli organning hisobvaragʻiga, 40 foizi — Oʻzbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamgʻarmasiga yoʻnaltiriladi.	
7.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat berilganligi uchun undiriladigan yigʻim:	Texnik xizmat koʻrsatish tashkiloti xodimlari soni	Yigʻim
		10 dan 49 gacha	BHMning 109,5 baravari
		50 dan 99 gacha	BHMning 164,2 baravari
		100 dan 499 gacha	BHMning 246,3 baravari
		500 dan 999 gacha	BHMning 369,4 baravari
		999 dan ortiq	BHMning 548,1 baravari
		Toifali ruxsat klassi uchun yigʻim	1-Jadvalga muvofiq
		1-jadval	
		Toifali ruxsat klassi	Havo kemasi va ish turi
			Toifali ruxsat klassi uchun yigʻim
		A1	Uchib chiqish vazni 5 700 kg dan ortiq boʻlgan samolyotlar
		A2	Uchib chiqish vazni 5 700 kg dan oshmaydigan samolyotlar
		A3	Vertolyotlar
		A4	A1, A2 va A3 toifalariga taalluqli boʻlmagan havo kemalari
		V1	Gazoturbinali dvigatellar
		V2	Porshenli dvigatellar
		V3	Yordamchi kuch qurilmalari
		C/D	Demontaj qilingan komponentlar, yigʻilgan holdagi asosiy aviatsiya dvigateli va yordamchi kuch qurilmalari bundan mustasno
		Izoh. Bir nechta A va/yoki V toifali ruxsatlarga ega boʻlgan tashkilotlar uchun faqat eng yuqori toʻlov olinadi. Bir nechta C va/yoki D toifali ruxsatlarga ega boʻlgan tashkilotlar uchun har bir toifali ruxsati uchun toʻlov olinadi. Yigʻimlar summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi: 10 foizi — Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamgʻarmasiga; 11,25 foizi — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini koʻrsatganlik uchun, shuningdek, 0,5 foizi Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari koʻrsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamgʻarmasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish boʻyicha maxsus hisobvaragʻiga; qolgan mablagʻlarning 60 foizi — vakolatli organning hisobvaragʻiga, 40 foizi — Oʻzbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamgʻarmasiga yoʻnaltiriladi.	
8.	Arizani koʻrib	45 ish kuni	

	chiqish muddati:	
9.	Ruxsat etishga oid talab va shartlar:	Umumiy talablar 1. Tashkilot quyidagi talablarga javob berishi lozim: a) ishlab chiqarish masalalarining samarali hal qilinishini ta'minlovchi tashkiliy tuzilmasiga va o'zining faoliyatini boshqarish tizimiga ega bo'lish;* b) belgilangan faoliyat sohasiga muvofiq ishlar tashkil etilishi va bajarilishiga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan amaldagi hamda belgilangan tartibda hisobga olingan ekspluatatsiya hujjatlariga ega bo'lish;* v) texnik xizmat ko'rsatish (reglament) dasturi, uchishga yaroqlilik direktivalari, "O'zaviatsiya" agentligining buyruq va ko'rsatmalari, havo kemasini loyihalashtiruvchining (ishlab chiquvchining) byulletenlari bo'yicha havo kemasiga va uning komponentlariga texnik xizmat ko'rsatish ishlari bajarilishini ta'minlash;* g) fuqaro aviatsiyasi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari va ularning talablarini hamda tashkilotning ichki hujjatlarini (shu jumladan, o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan hamda kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni hisobga olgan holda) o'z vaqtida o'rganish va ijro etish maqsadida xodimlar e'tiboriga yetkazish tartib-taomillariga ega bo'lish;* d) ishlarni bajarish va xodimlar uchun kerakli sharoitlarni yaratish uchun binolar, inshootlar, zarur energiya turlari, ishlab chiqarish xonalari, omborxona, ofis va maishiy binolarga ega bo'lish;* e) havo kemasini loyihalovchining (ishlab chiquvchining) hujjatlariga muvofiq zarur bo'lgan uskunalar va asboblarga, shuningdek, ularni yaroqli holda saqlash tizimiga ega bo'lish;* j) havo kemasini loyihalashtiruvchining (ishlab chiquvchining) hujjatlariga muvofiq ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan komponentlar, ehtiyot qismlar va sarflash materiallarining kerakli zaxirasiga ega bo'lish;* z) tashkilot shtatida rejalashtirilgan ishlarning bajarilishini ta'minlashga yetarlicha malakaga ega bo'lgan xodimlarning mavjud bo'lishi;* i) xodimlarning malaka darajasini saqlash (oshirish), ularni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimiga ega bo'lish;* k) aviatsiya texnikasida texnik xizmat ko'rsatish, modifikatsiyalash, ta'mirlash ishlari va boshqa ishlar to'la hajmda va texnik xizmat ko'rsatish (reglament) dasturi, uchishga yaroqlilik direktivalari, "O'zaviatsiya" agentligining buyruq va ko'rsatmalari, havo kemasini loyihalovchi (ishlab chiquvchi)ning byulletenlariga muvofiq bajarilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarning ro'yxatga olinishi va saqlanishini ta'minlash;* l) barcha texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarning tegishli darajada bajarilishini kafolatlaydigan sifatni ta'minlash tizimiga ega bo'lish;* m) tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanmaga va sifat bo'yicha qo'llanmaga ega bo'lish;* n) parvozlar xavfsizligini boshqarish tizimiga ega bo'lish.* Ishlab chiqarish obyektlari 2. Tashkilot quyidagi shartlar bajarilishini ta'minlashi kerak: a) barcha rejalashtiriladigan ishlarni bajarish uchun, xususan, ob-havoning noqulay sharoitlaridan himoya qilishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish obyektlarining mavjudligi. Quyidagi ishlarni amalga oshirish vaqtida bir-biridan ajratilgan, ifloslanish va atrof-muhit ta'siridan himoya qilishni ta'minlaydigan sex va angarlarning mavjudligi:

havo kemalariga davriy texnik xizmat ko'rsatish — davriy texnik xizmat ko'rsatishning rejalashtirilgan ish hajmiga ko'ra, havo kemalarning soni va o'lchami bo'yicha yetarli bo'lgan angarlar;

komponentlarga texnik xizmat ko'rsatish — komponentlarga texnik xizmat ko'rsatishning rejalashtirilayotgan ish hajmini ta'minlash uchun yetarlicha keng bo'lgan sex (laboratoriya, uchastka)lar;

b) ushbu bandning "a" kichik bandida ko'rsatilgan barcha rejalashtirilgan ishlarni boshqarishni ta'minlash, shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish standartlarida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga sharoit yaratish maqsadida ruxsat beruvchi xodimlarni joylashtirish uchun xizmat (ofis) xonalarining mavjudligi;

v) ishlab chiqarish muhiti, shu jumladan, uskunalar bilan ishlash uchun angarlar, sexlar (laboratoriyalar, uchastkalar) sharoitlari ehtimoliy maxsus talablarni hisobga olgan holda, u yerda bajariladigan ishlarga mos bo'lishi. Alohida sharoitlarda maxsus ishlar turlarini bajarish hollaridan tashqari mehnat sharoitlari xodimlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak, shu bilan birga:

harorat rejimi xodimlar ortiqcha noqulayliksiz, ularga yuklangan ishlarni bajarish uchun mos ravishda ta'minlanishi kerak;

chang va boshqa shunga o'xshash havo ifloslanishi omillari minimallashtirilgan bo'lishi kerak, havo kemasi va/yoki komponent yuzasida ko'rinadigan chang qoplamasi paydo bo'lishiga, ish joyining bunday ifloslanish darajasiga yo'l qo'yilmaydi. Chang yoki yuza qismida ko'rinadigan chang qoplamasi shaklida boshqa ifloslanishlar paydo bo'lsa, qulay ish sharoitlari tiklanguniga qadar barcha ifloslanishga sezgir tizimlarning joylarini zich ravishda yopish kerak;

yorug'lik barcha turdagi tekshiruvlar, ko'riklar va boshqa texnik ishlar samarali bajarilishini ta'minlash kerak;

shovqin xodimlarga ishlarni bajarishda xalaqit bermasligi kerak. Shovqin manbaini rostlashning imkoni bo'lmagan hollarda, ko'rsatilgan xodimlar ortiqcha shovqinning ishlarni bajarishga salbiy ta'sirini istisno qiluvchi zarur shaxsiy shovqindan himoya qilish vositalari bilan ta'minlanishi kerak;

texnik xizmat ko'rsatishda aniq bir ish uchun yuqorida tavsiflanganlardan farq qiladigan ishlab chiqarish muhiti maxsus sharoitlari yaratilishi talab qilinadigan bo'lsa, bunday sharoitlar yaratilishi kerak bo'ladi. Bunday maxsus sharoitlar texnik xizmat ko'rsatish hujjatlarida ko'rsatiladi;

tezkor texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish sharoitlari ishlar ortiqcha zo'riqish va charchash holatlarisiz bajarilishini ta'minlashi lozim. Shu sababli, ish sharoitlari harorat, namlik, tuman, muz, qor, shamol, yorug'lik, chang yoki havoning boshqa tarzda ifloslanishi sababli noqulay darajagacha yomonlashgan hollarda, aniq ish yoki texnik xizmat ko'rsatish turi qulay ish sharoitlari tiklanguniga qadar to'xtatib turilishi kerak;

g) komponentlar, uskunalar, asboblari va materiallarni joylashtirish uchun xavfsizlik vositalari bilan jihozlangan omborxonalarining mavjudligi. Saqlash sharoitlari talablarga javob beradigan hamda bermaydigan komponentlar va materiallarni hamda barcha komponentlar, materiallar, uskunalar va asboblarni alohida saqlash imkoniyatini ta'minlashi kerak. Saqlash sharoitlari aviatsiya texnikasi ishlab chiqaruvchilarining ko'rsatmalariga javob berishi, ushbu xonalarga kirish esa chegaralangan bo'lib, faqat vakolatli xodimlarga kirish ruxsati berilishi kerak.

Xodimlar

3. Tashkilotda mas'ul rahbarga ishlar buyurtmachisining talablariga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha ishlarni o'z vaqtida bajarish va moliyalashtirish uchun javobgarlik yuklanadi.

Tashkilot mas'ul rahbarning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

a) ushbu Talablarning 55-bandiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish uchun barcha zarur resurslar mavjudligini ta'minlash. Bu tashkilot tomonidan tasdiqlashning haqiqiyligini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan omildir;

b) ushbu Talablarning 54-bandiga muvofiq parvozlar xavfsizligi va aviatsiya texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish sifati sohasidagi siyosatni ishlab chiqish va joriy qilish.

4. Tashkilotning ushbu talablarga doimo muvofiq bo'lishi bo'yicha javobgarlik yuklangan rahbar xodimlari tayinlangan bo'lishi zarur. Rahbar xodimlar bevosita tashkilotning mas'ul rahbariga bo'ysunadi, shu bilan birga:

a) bir kishi yoki vakolatli shaxslar guruhi (rahbar xodimlar) o'zida ushbu tashkilotdagi texnik xizmat ko'rsatishni boshqarish tuzilmasini namoyon qiladi va ushbu talablarda nazarda tutilgan barcha vazifalarning bajarilishi yuzasidan javobgar bo'ladi;

b) rahbar xodimlar havo kemalariga yoki komponentlarga texnik xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan tegishli bilim, ish tajribasi va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

5. Mazkur Talablarning 3-bandiga ko'ra mas'ul rahbar sifat tizimiga, jumladan mazkur Talablarning 62-bandiga asosan qaytadigan aloqa tizimiga javobgar shaxsni tayinlashi zarur. Ushbu tayinlagan shaxs tashkilotning mas'ul rahbariga sifat va talablarga muvofiqlik masalalari to'g'risida axborot berilishini ta'minlash maqsadida mas'ul rahbar oldiga to'g'ridan-to'g'ri kirish huquqiga ega bo'lishi lozim.

6. Tashkilot quyidagilarga ega bo'lishi shart:

a) tasdiqlanish sohasiga muvofiq ishlarni rejalashtirish, bajarish, ishlab chiqarishni boshqarish, tashkilotda sifatni nazorat qilish uchun yetarli bo'lgan o'z xodimlariga egaligini tasdiqlovchi ish bilan ta'minlanganlik rejasi;

b) shtatdagi haqiqiy xodimlarning soni aniq ish smenasiga yoki ish davriga rejalashtirilgandan kam bo'lgan hollarda, bajarishga qabul qilingan ishlarni tezkorlik bilan qayta rejalashtirish tartib-taomillari;

v) tashkilot va ekspluatant o'rtasidagi texnik xizmat ko'rsatish shartnomasida nazarda tutilgan ishchi texnologik kartalarni, texnik xizmat ko'rsatish dasturlarini, minimal uskunalar ro'yxatini va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish uchun muhandislik bo'limi.

7. Tashkilot "O'zaviatsiya" agentligi bilan kelishilgan tartib-taomillarga muvofiq texnik xizmat ko'rsatishni bajarishda, boshqarishda yoki sifatni nazorat qilishda ishtirok etuvchi xodimlarning bilim va malaka darajasini belgilashi va nazorat qilishi kerak. Tashkilot texnik xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi barcha xodimlarning o'ziga yuklangan vazifalar va mas'uliyatlarga muvofiq dastlabki va keyingi ta'lim olishini ta'minlaydi. Tashkilot tomonidan joriy etiladigan o'quv dasturida inson imkoniyatlari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, shu jumladan, havo kemasini ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat ko'rsatish ishlari bilan shug'ullanadigan boshqa xodimlar bilan o'zaro hamkorlik qilish maqsadida mashg'ulotlar ko'zda tutilishi kerak.

8. Tashkilot havo kemalarini va/yoki komponentlarni putur yetkazmasdan nazorat qilish kabi uchishga yaroqlilikni ta'minlash bilan bog'liq maxsus turdagi ishlarni bajaruvchi yoki nazorat qiluvchi xodimlar havo kemalarini

va/yoki komponentlarini ishlab chiqaruvchilarning normativ talablariga javob beradigan malakaga ega bo'lishini ta'minlashi zarur.

9. Sifat tizimiga javobgar shaxs ishlarni bajarish uchun ruxsat berilgan xodimlarga tashkilot nomidan ruxsatnomalar berilishi uchun ham javobgar bo'lishi kerak. Bunday shaxs sifat bo'yicha qo'llanmada ko'rsatilgan tartib-taomillarga muvofiq yuqorida ko'rsatilgan ruxsatnomalarni berish yoki qaytarib olishni amaliy jihatdan rasmiylashtirish bo'yicha vakolatlarni boshqa shaxsga topshirish huquqiga ega.

10. Tashkilot barcha muhandis-texnik xodimlarning ro'yxatini yuritishi lozim. Xodimlar ro'yxatida quyidagilar ko'rsatilishi zarur:

- a) "O'zaviatsiya" agentligi va tashkilot tomonidan texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassislariga berilgan guvohnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- b) xodimlarning barcha o'tgan tayyorgarliklari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- v) berilgan ruxsatnomalarning sohalari;
- g) chegaralangan yoki bir martalik ruxsatnomalarga ega bo'lgan xodimlar bo'yicha ma'lumotlar.

11. Tashkilot ro'yxatidagi ma'lumotlarni shaxs muhandis-texnik xodimlar tarkibidan ishdan bo'shagan kundan yoki ruxsatnoma bekor qilingan kundan e'tiboran kamida ikki yil davomida saqlashi shart. Bundan tashqari, muhandis-texnik xodimlar tarkibidan ishdan bo'shayotgan xodimning so'rovi bo'yicha tashkilot unga yuqorida ko'rsatilgan ro'yxatdan ko'chirma berishi shart.

12. Muhandis-texnik xodimlar tarkibidagi shaxsning so'roviga ko'ra unga yuqorida ko'rsatilgan ro'yxatdan shaxsiy ma'lumotlarni olishga ruxsat berilishi shart.

13. Texnik xizmat ko'rsatishdan keyin havo kemasini parvozga qo'yish huquqini beruvchi ruxsatnoma tashkilot tomonidan ruxsat beruvchi xodimlarga qog'oz yoki elektron ko'rinishda beriladi.

14. Ruxsat beruvchi xodimlar ushbu bo'limning 13-bandiga muvofiq berilgan ruxsatnoma mavjudligini tasdiqlovchi hujjatni 24 soat ichida vakolatli shaxsga taqdim etishi shart.

Uskunalar, asboblari va materiallar

15. Tashkilot faoliyatning tasdiqlangan sohasiga muvofiq aviatsiya texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan uskunalar, asboblari va materiallarga ega bo'lishi lozim.

Aviatsiya texnikasini ishlab chiqaruvchi ko'rsatmasi bo'yicha aniq uskunalar yoki asboblardan foydalanish belgilangan bo'lsa, tashkilot aynan shu uskunalar yoki asboblardan foydalanishi lozim, tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanmada uskunalar yoki asboblarning boshqa turlaridan foydalanish bo'yicha tartib-taomillar bayon etilgan hollar bundan mustasno.

Uskunalar va asboblari doimiy ravishda tashkilotning tasarrufida bo'lishi lozim, uskunalar va asboblari kamdan-kam hollarda kerak bo'lib, ular doimiy tasarrufda mavjud bo'lishi zarur bo'lmagan hollar bundan mustasno. Bunday holatlar tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanmada batafsil bayon etilgan bo'lishi zarur.

Davriy texnik xizmat ko'rsatish uchun tasdiqlangan tashkilot havo kemasini tekshirish va ko'zdan kechirish ishlarining puxta bajarilishi uchun zarur bo'lgan barcha platformalar (yoki bunga ekvivalent bo'lgan uskunalar) va boshqa zarur vositalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

16. Tashkilot barcha uskunalar va asboblarning, ayniqsa, nazorat qilish vositalarining hisobi yuritilishini hamda ishlash layoqati va aniqlikni ta'minlash davrida metrologik nazoratdan o'tkazilishini ta'minlashi zarur.

Tashkilot bunday metrologik nazoratni va bu hollarda foydalaniladigan standartlar bo'yicha hisobga olish hujjatlarining yuritilishini ta'minlashi lozim.

Komponentlar

17. Barcha komponentlar, standart mahsulotlar va materiallar quyidagicha tasniflanishi va ajratilishi kerak:

a) qoniqarli holatda bo'lgan, foydalanish uchun ruxsat berilgan (masalan, FAA 8130-3 yoki EASA Form 1 yoki ekvivalent hujjat) va ushbu bo'limning 18-bandiga muvofiq markirovka qo'yilgan komponentlar;

b) ishga yaroqsiz, mazkur bo'limning talablariga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish ishlari bajarilishi zarur bo'lgan komponentlar;

v) ushbu Talablarning 25-bandiga muvofiq tasniflanadigan, tiklab bo'lmaydigan komponentlar;

g) ishlab chiqaruvchi tomonidan asosiy qismlarning tasvirlangan katalogida va/yoki texnik xizmat ko'rsatish hujjatlarida ko'rsatilgan, havo kemasida, dvigatelda, havo vintida yoki havo kemasining boshqa komponentida foydalaniladigan standartli mahsulotlar;

d) texnik xizmat ko'rsatish jarayonida sarflash materiallari va xomashyo sifatida foydalaniladigan materiallar. Barcha materiallar materialning aniq markasi uchun rasmiylashtirilgan, talablarga (o'ziga xos xususiyatlarga) muvofiqligini tasdiqlovchi ma'lumotlardan va materialning ishlab chiqaruvchisi hamda yetkazib beruvchisi ko'rsatilgan kelib chiqish manbaidan iborat kuzatuv hujjatlariga ega bo'lishi lozim.

18. Texnik xizmat ko'rsatish va ekspluatatsiya qilish qo'llanmasida almashtirilishi mumkinligi ko'zda tutilgan komponentlarda mahsulot kodi, chizma va zavod raqami markirovkasi tushirilgan bo'lishi kerak.

Agar komponentning o'lchami kichik bo'lsa va markirovkani to'liq hajmda bajarish mumkin bo'lmasa, zarur ma'lumotlar kuzatuv hujjatlariga kiritilishi kerak.

19. Ekspluatatsiya hujjatlarida nazarda tutilgan komponentlarning pasportlariga (yorlig'iga) nisbatan tashkilot ularni rasmiylashtirish va yuritish tartib-taomillariga ega bo'lishi kerak.

20. Komponentni havo kemasiga o'rnatishdan oldin tashkilot turli modifikatsiyalar va/yoki uchishga yaroqlilik direktivalari qo'llanilishini hisobga olgan holda aniq komponent o'rnatilishining to'g'riligini, kuzatuv hujjatlarining mavjudligini va ular tashkilotda belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirishi zarur.

21. Havo kemasiga kuzatuv hujjatlari (masalan, EASA Form 1, formulyar, pasport, yorliq, talon, birka) rasmiylashtirilgan, aniq turdagi havo kemasining tasdiqlangan konstruktorlik-texnologik hujjatlariga muvofiq bo'lgan, zarur reglament ishlari o'tkazilgan (kirish nazorati, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash) faqat konditsion (tasdiqlangan) komponentlarni o'rnatish mumkin.

22. Havo kemasidan yechilgan komponentlar uchun kuzatuv hujjatlari rasmiylashtirilishi, ulash joylari teshiklari va ulagichlar begona predmetlar tushishidan va ifloslanishdan himoyalangan bo'lishi kerak.

23. Tashkilot havo kemasi va/yoki komponent turiga berilgan sertifikat egalari "O'zaviatsiya" agentligiga texnik xizmat ko'rsatish jarayonida aniqlangan, nokonditsion (tasdiqlanmagan) butlovchi qismlar, standart mahsulotlar yoki komponentlar va ularning kuzatuv hujjatlari to'g'risida haqqoniy va to'la ma'lumot taqdim etishi zarur.

Komponentlarning va kuzatuv hujjatlarining yuqorida qayd etilgan talablarga nomuvofiqligi to'g'risida shubha paydo bo'lganda yoki nomuvofiqligi tasdiqlanganda, ularni havo kemasiga o'rnatishga yo'l

qo'yilmaydi. Bunday hollarda komponentlarni nokonditsion (tasdiqlanmagan) va havo kemasida foydalanish uchun yaroqsiz deb tasniflash kerak. Bunday mahsulotlar aniqlangan nomuvofiqlikning aniq xususiyatini tavsiflagan holda zudlik bilan izolyatsiya qilinishi lozim.

24. Tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanmada tegishli tartib-taomillar va texnologiyalar ko'rsatilgan bo'lsa, tashkilot texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish chog'ida o'zi tomonidan amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanish uchun tarkibiy qismlarning cheklangan nomenklaturasini ishlab chiqarish huquqiga ega. Standart mahsulotlar va komponentlar (mahkamlash elementlari va boshqalar) qabul qilingan milliy yoki tarmoq standartlariga va konstruktorlik-texnologik hujjatlarga muvofiq ishlab chiqarilgandagina, ulardan ma'lum bir turdagi havo kemasida texnik xizmat ko'rsatish jarayonida foydalanishga ruxsat etiladi. O'ta mas'uliyatli detallar toifasiga kiradigan komponentlardan havo kemasida foydalanishga ularni havo kemasi ishlab chiqaruvchisi tomonidan ishlab chiqarish ma'qullangan holda ruxsat etiladi.

25. Belgilangan resurslarini yoki xizmat muddatini ishlab bo'lgan yoxud ta'mirlab bo'lmaydigan buzilish holatiga kelgan (shikastlangan) komponentlar qayta tiklanmaydigan deb tasniflanadi hamda ekspluatatsiyaga, shu jumladan, komponentlarning aylanma tizimiga qaytarilmaydi, komponentning resursi (xizmat muddati) uzaytirilgan yoki uni ta'mirlash uchun hujjatlar ishlab chiqilib, tasdiqlangan hollar bundan mustasno.

Quyidagi komponentlar turlari odatda qayta tiklab bo'lmaydigan deb tasniflanadi:

- 1) ta'mirlab bo'lmaydigan nuqsonli komponentlar;
- 2) ishlab chiqarilganiga doir hujjatlarga nomuvofiq bo'lgan va bunday hujjatlarga muvofiq keltirish imkoni bo'lmagan komponentlar;
- 3) nomaqbul modifikatsiyaga yoki qayta ishlashga yuborilgan, to'g'rilab bo'lmaydigan komponentlar;
- 4) cheklangan yaroqlilik muddati yetib kelgan yoki oshib ketgan yoxud kuzatuv hujjatlarida mavjud bo'lmagan yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga ega bo'lgan mahsulotlar;
- 5) ekstremal sharoitlarda bo'lganligi, qizib ketish yoki zararli sharoitlar tufayli uchishga yaroqliligi holatini qaytarish imkoniyati bo'lmagan komponentlar;
- 6) qo'llaniladigan uchishga yaroqlilik direktivalariga muvofiqlashtirish imkoni bo'lmagan komponentlar;
- 7) texnik xizmat ko'rsatish va/yoki ishlab chiqarishni kuzatish va ekspluatatsiya ma'lumotlarini tiklab bo'lmaydigan komponentlar.

26. Tashkilot yaroqsiz komponentlar xizmat ko'rsatishga va belgilangan maqsadlariga ko'ra ekspluatatsiyaga qaytishini istisno etuvchi sharoitlarda joylashtirilishi choralarini ko'rishi lozim.

Texnik xizmat ko'rsatish hujjatlari

27. Tashkilot o'z tasarrufida texnik xizmat ko'rsatish, shu jumladan, modifikatsiyalash va ta'mirlash ishlarini bajarishda qo'llaniladigan texnik xizmat ko'rsatish hujjatlariga ega bo'lishi va ulardan foydalanishi zarur.

28. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'llaniladigan hujjatlar quyidagilar hisoblanadi:

- a) havo kemasi yoki komponentga nisbatan nazoratni amalga oshiruvchi "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan chiqarilgan va qo'llaniladigan har qanday talablar, texnologiyalar va ekspluatatsiya direktivalari yoki boshqa ma'lumotlar;

b) havo kemasi yoki komponent bo'yicha nazoratni amalga oshiruvchi "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan chiqarilgan va qo'llaniladigan har qanday uchishga yaroqlilik direktivalari;

v) havo kemasi turiga berilgan sertifikat (shu jumladan uning qo'shimchalari) egalari tomonidan hamda aviatsiya texnikasini sertifikatlash talablariga muvofiq bunday ko'rsatmalarni chiqaradigan tashkilotlar tomonidan chiqarilgan uchishga yaroqlilikni talab darajasida saqlash bo'yicha qo'llaniladigan ko'rsatmalar, xorijiy havo kemalari yoki komponentlar uchun esa — havo kemalari yoki komponentga nisbatan nazoratni amalga oshiruvchi xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan uchishga yaroqlilik bo'yicha ishlab chiqilgan majburiy ma'lumotlar;

g) mazkur Talablarning 30-bandiga muvofiq chiqarilgan har qanday qo'llaniladigan hujjatlar va ma'lumotlar.

29. Tashkilot ishlab chiqarish xodimlari tomonidan foydalaniladigan texnik xizmat ko'rsatish hujjatlarida to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri tartib-taomillar yoki texnologiyalar, ma'lumotlar yoki ko'rsatmalar aniqlangan taqdirda, bunday ma'lumotlarning ro'yxatga olinishini va texnik xizmat ko'rsatish hujjatlari muallifiga xabar berilishini ta'minlovchi tartib-taomillarni belgilashi shart.

30. Tashkilot texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'rsatmalarga tashkilotning sifat bo'yicha qo'llanmasida belgilangan tartibdagina o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Ushbu o'zgartirishlarga nisbatan tashkilot ular texnik xizmat ko'rsatishning ekvivalent yoki yanada yuqoriroq standartlari ta'minlashini ifodalab berishi hamda havo kemasi turiga berilgan sertifikat egasini bunday o'zgartirishlar to'g'risida xabardor qilishi zarur.

31. Tashkilot o'z faoliyatida qo'llash uchun ishchi texnologik kartalarini ishlab chiqish bo'yicha umumiy tizimni yaratishi shart. Bundan tashqari, tashkilot mazkur Talablarning 27 va 28-bandlari bilan nazarda tutilgan texnik xizmat ko'rsatish hujjatlaridan ushbu ishchi texnologik kartalariga to'la va aniq ma'lumotlarni kiritishi lozim yoki texnik xizmat ko'rsatish hujjatlarida ko'rsatilgan texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish bo'yicha muayyan ko'rsatmalarga doir aniq havolalarni ishchi texnologik kartalarida berishi zarur.

Ishchi texnologik kartalarini kompyuterdan foydalangan holda shakllantirishga va ma'lumotlar bazasini ruxsatsiz o'zgartirishlardan to'g'ri himoyalash sharoitlarini yaratish va zaxira ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish sharti bilan elektron bazada saqlashga yo'l qo'yiladi. Bunda zaxira ma'lumotlar bazasi asosiy ma'lumotlar bazasiga har qanday o'zgartirish kiritilgan vaqtdan boshlab 24 soatdan ko'p bo'lmagan muddatda yangilanishi lozim. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha murakkab ishlar bajarilishining hisobini yuritish uchun ularning texnologiyalari ishlarni aniq va tushunarli bosqichlarga taqsimlagan holda ishchi texnologik kartalarga kiritilishi kerak.

Tashkilot o'zining ishchi texnologik kartalari tizimidan foydalanishni talab qilgan havo kemasi ekspluatantiga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarini taqdim etayotganda, ekspluatantning bunday kartalar tizimidan foydalanishga yo'l qo'yiladi. Bu holda tashkilot havo kemasi ekspluatantining ishchi texnologik kartalari to'g'ri bajarilishini ta'minlaydigan tartib-taomillarni qabul qilishi shart.

32. Tashkilot o'z xodimlariga texnik xizmat ko'rsatish hujjatlaridan to'siqsiz foydalanish imkoniyatini ta'minlashi zarur.

33. Tashkilot texnik xizmat ko'rsatish hujjatlari holatini nazorat qilish uchun ushbu hujjatlar o'z vaqtida yangilanishini ta'minlaydigan tartib-taomillarni belgilashi zarur. Hujjatlar holatining bu kabi nazoratini ekspluatant va/yoki

buyurtmachining o'zi amalga oshirib, o'zi texnik xizmat ko'rsatish hujjatlarini taqdim etayotgan bo'lsa, tashkilot ekspluatant va/yoki buyurtmachining texnik xizmat ko'rsatish hujjatlariga barcha zarur o'zgartirishlar kiritilganligini tasdiqlovchi xatni yoxud havo kemasining ekspluatanti va/yoki buyurtmachi taqdim etgan va foydalanilishi lozim bo'lgan texnik xizmat ko'rsatish hujjatlari mavqeyi belgilangan shartnomani yoxud texnik xizmat ko'rsatish hujjatlarining o'zgartirishlarni hisobga olish varag'ini taqdim etishi zarur.

Ishlab chiqarishni rejalashtirish

34. Tashkilot bajariladigan ishlarning hajmi va murakkabligiga javob beradigan hamda barcha resurslarni, shu jumladan xodimlar, uskunalar, asboblarni, materiallarni, texnik xizmat ko'rsatish hujjatlari, texnik xizmat ko'rsatish ishlarini xavfsiz bajarish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish xonalarini rejalashtirishda foydalaniladigan ishlab chiqarishni rejalashtirish tizimiga ega bo'lishi shart.

35. Texnik xizmat ko'rsatish ishlarini rejalashtirish va smenali ishlarni tashkil etish insonning psixofiziologik cheklovlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi zarur.

36. Smena almashishi yoki bajaruvchilar tarkibining o'zgarishi sababli texnik xizmat ko'rsatish ishlarini davom ettirish yoki tugatish boshqa shaxslarga topshirilishi zarurati tug'ilganda, tegishli ma'lumotlar ishni topshiruvchi tomonidan yangi kelayotgan xodimlarga tegishli topshirilishi lozim.

Texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnoma

37. Texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnoma mazkur Talablarning "Texnik xizmat ko'rsatish hujjatlari" bo'limida ko'rsatilgan texnik xizmat ko'rsatish hujjatlarining mavjudligini va ulardan foydalanilganligini hisobga olgan holda, tashkilot tomonidan texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha ishlar shartnomaga muvofiq to'liq va sifatli bajarilgani tekshirilgandan so'ng, shuningdek, parvozlar xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi nomuvofiqliklarning yo'qligi tasdiqlangandan keyin tashkilot nomidan ishlarni bajarishga tegishli ruxsatnoma berilgan ruxsat beruvchi va muhandis-texnik xodimlar tomonidan rasmiylashtiriladi.

38. Texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnoma har qanday texnik xizmat ko'rsatish ishlari yakuniga yetgandan keyin parvozlar tiklanguniga qadar rasmiylashtirilishi zarur.

39. Bajarilgan texnik xizmat ko'rsatish ishlari jarayonida yangi aniqlangan buzilishlar, shikastlanishlar yoki yakuniga yetkazilmagan ishlar havo kemasi ekspluatanti e'tiboriga yetkazilishi zarur, bunda buzilishlar, shikastlanishlarni bartaraf etish yoki shartnoma bo'yicha yakuniga yetkazilmagan operatsiyalarni oxiriga yetkazish uchun havo kemasi ekspluatanti roziligini olish ko'zda tutiladi. Havo kemasi ekspluatanti mazkur bandda ko'rsatilgan ishlar bajarilishiga rozilik bermagan hollarda, mazkur Talablarning 41-bandi qoidalari tatbiq etiladi.

40. Texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnoma havo kemasi bortidan demontaj qilingan har qanday komponentda texnik xizmat ko'rsatish ishlari yakuniga yetkazilganidan keyin rasmiylashtirilishi zarur. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida ishlab chiqarilgan komponentning formulayida (pasporti, yorlig'i) qo'yilgan belgi yoki xorijiy komponentlar uchun — yorliq (EASA Form 1 yoki uning ekvivalenti) komponentda texnik xizmat ko'rsatish bajarilganligi to'g'risidagi guvohnoma hisoblanadi.

41. Mazkur Talablarning 39-bandidan, istisno tariqasida, tashkilot tomonidan shartnomada nazarda tutilgan barcha texnik xizmat ko'rsatish ishlari

to'la-to'kis yakuniga yetkazilishining imkoni bo'lmagan hollarda, tashkilot berilgan havo kemasi uchun tasdiqlangan cheklovlar doirasida texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnomani berishga haqli. Tashkilot bunday guvohnomani imzolashdan oldin havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnomada umumiy ravishda ushbu holatni aks ettirishi lozim.

42. Mazkur Talablarning "Komponentlar" bo'limi va 38-bandidan, istisno tariqasida, tegishlicha rasmiylashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnoma berilgan komponent yo'qligi tufayli asosiy bazirovkasi yoki texnik xizmat ko'rsatish liniyasi/tashqi liniya stansiyasi hisoblanmagan joyda havo kemasi majburan turib qolganda, tegishlicha rasmiylashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnoma berilmagan komponentni ko'pi bilan 30 soat uchish vaqtiga teng bo'lgan muddatga yoxud asosiy bazirovkasi yoki texnik xizmat ko'rsatish liniyasi/tashqi liniya stansiyasiga birinchi bor qaytishigacha bo'lgan vaqtga, qaysi biri ertaroq bo'lishiga qarab, havo kemasiga vaqtincha o'rnatishga ruxsat beriladi.

Bunday istisno havo kemasi ekspluatantining ko'rsatilgan komponent qo'yilishiga roziligi hamda ushbu komponent uning ekspluatatsiyasiga ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lishi sharti bilan qo'llaniladi. Ushbu shartlarga rioya qilinmagan hollarda, texnik xizmat ko'rsatish ishlariga nisbatan qo'llaniladigan barcha talablarga va ekspluatatsiya qoidalariga rioya qilinishi lozim. Bunday komponentlar yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaqt cheklovlari bo'yicha muddatlar tugaganidan keyin havo kemasi bortidan demontaj qilinishi lozim, mazkur Talablarning 38-bandi va "Komponentlar" bo'limiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnoma rasmiylashtirilgan hollar bundan mustasno.

Texnik xizmat ko'rsatish ishlari to'g'risida hisobga olish ma'lumotlari

43. Tashkilot bajarilgan ishlar bo'yicha barcha ma'lumotlarni hisobga olishi zarur.

44. Tashkilot texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnomaga nisbatan barcha talablarga rioya qilinganligini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan hisobga olish ma'lumotlarini, shu jumladan, subpudratchi (boshqa tashkilot)lar tomonidan rasmiylashtiriladigan aviatsiya texnikasini ekspluatatsiya qilishga ruxsat berish to'g'risidagi hujjatlarni saqlashga majbur.

45. Tashkilot mazkur Talablarning 47-bandida ko'rsatilgan muddatlarda quyida qayd etilgan ma'lumotlar saqlanishini ta'minlashi shart:

1) havo kemasini va xizmat muddati cheklangan barcha komponentlarni ekspluatatsiya qilishning umumiy vaqti (soatlar, kalendar vaqti va sikllarga nisbatan);

2) uchishga yaroqlilikni saqlash haqidagi barcha majburiy ma'lumotlar muvofiqligi to'g'risida joriy ma'lumotlar;

3) modifikatsiyalar va ta'mirlashlar bo'yicha tegishli batafsil ma'lumotlar;

4) majburiy ta'mirlararo xizmat muddatiga muvofiq havo kemasini yoki uning komponentlarini oxirgi ta'mirdan keyin ekspluatatsiya qilish vaqti (soatlar, kalendar vaqti va sikllarga nisbatan);

5) havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatish dasturiga rioya qilinganligi haqida joriy ma'lumotlar;

6) texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnomani imzolashda barcha talablar bajarilganligini tasdiqlaydigan texnik xizmat ko'rsatishga doir batafsil ma'lumotlar.

46. Tashkilot havo kemasining ekspluatantiga tashkilot tomonidan rasmiylashtirilgan har bir texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnomaning nusxasini, shuningdek, ta'mirlash yoki modifikatsiya qilish

ishlarini bajarishda foydalanilgan ta'mirlashga yoki modifikatsiyaga doir har qanday hujjatlarning nusxasini taqdim etishi zarur.

47. Tashkilot texnik xizmat ko'rsatish ishlari to'g'risidagi hisobga olish ma'lumotlarini va texnik xizmat ko'rsatish ishlari bilan bog'liq hujjatlarni ushbu ishlar bajarilgan aniq havo kemasi yoki havo kemasi komponenti tashkilotdan chiqarilgan sanadan boshlab ikki yil davomida quyidagicha saqlashi shart:

a) mazkur badda nazarda tutilgan ma'lumotlar shikast yetkazilishidan va yo'q qilinishdan himoyalangan bo'lishi lozim;

b) ma'lumotlarni arxivlashtirish va zaxira sifatida saqlash uchun foydalaniladigan barcha kompyuter jihozlari ma'lumotlarning ishchi nusxalari kiritilgan jihozlardan alohida hamda ushbu jihozlar va arxiv ma'lumotlari yaxshi holatda saqlanishini ta'minlovchi sharoitlarda joylashtirilishi lozim;

v) tashkilot o'z faoliyatini tugatgan taqdirda, oxirgi ikki yil davomida bajarilgan texnik xizmat ko'rsatish ishlari to'g'risidagi barcha saqlangan hisobga olish ma'lumotlari oxirgi buyurtmachiga yoki tegishli havo kemasining yoki komponentning egasiga topshirilishi yoki "O'zaviatsiya" agentligining ko'rsatmalariga binoan saqlanishi ta'minlanishi lozim.

Uchishga yaroqlilik me'yorlari buzilishi bo'yicha hisobot yuritish

48. Tashkilot "O'zaviatsiya" agentligiga, havo kemasini ro'yxatdan o'tkazgan davlatga va havo kemasi yoki komponentning namunaviy konstruksiyasi yoki namunaviy konstruksiyasi modifikatsiyasi uchun javobgar bo'lgan tashkilotga, zaruratga ko'ra ekspluatant davlatiga mazkur tashkilot tomonidan aniqlangan havo kemasining yoki komponentning parvozlar xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan yoki bunday ta'sir ko'rsatilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan uchishga yaroqlilik me'yorlarining har qanday buzilishlari holatlari to'g'risida hisobot yuborishi shart.

49. Tashkilot hech bo'lmaganda quyidagi sabablar va holatlar bilan bog'liq holda sodir bo'lgan yoki aniqlangan har qanday buzilish, nosozlik yoki nuqson haqida xabar berishi kerak:

a) tegishli yong'in signalizatsiyasi tizimi to'g'ri ishlagan yoki ishlamaganligini ko'rsatgan holda parvoz vaqtidagi yong'inlar;

b) tegishli yong'in signalizatsiyasi tizimi bilan jihozlanmagan havo kemasining parvozi vaqtidagi yong'inlar;

v) parvoz vaqtida yong'in haqidagi signalizatsiya noto'g'ri ishlab ketgani;

g) dvigateldan chiquvchi gaz oqimi, dvigatelning o'zi, unga yaqin joylashgan konstruksiyalar, uskunalar yoki komponentlarning ta'siri oqibatida parvoz vaqtida yuzaga kelgan shikastlanishlar;

d) parvoz vaqtida ekipaj kabinasi yoki yo'lovchilar salonida havo kemasi komponentlarining biri oqibatida tutun, bug'lar, zaharli yoki zaharli bo'lmagan bug'lanishlar to'planishi yoki sirkulyatsiyasi paydo bo'lishi;

e) parvoz vaqtida dvigatel o'z-o'zidan o'chib qolishi;

j) havo kemasining dvigateliga yoki konstruksiyasiga tashqi shikast yetkazilishi oqibatida parvoz vaqtida dvigatelning o'chib qolishi;

z) begona obyektlar tushishi yoki muz bilan qoplanishi tufayli parvoz vaqtida dvigatelning o'chib qolishi;

i) parvoz vaqtida bittadan ortiq dvigatelning o'chib qolishi;

k) flyuger tizimi orqali havo vintining shamol yo'nalishi bo'ylab aylanishi yoki ushbu tizim parvoz vaqtida aylanishlar soni oshib ketishini nazorat qila olmasligi;

l) parvoz vaqtida yoqilg'i tizimida yoki yoqilg'i drenaj tizimida yoqilg'i uzatishda yuzaga kelgan kamchiliklar yoki xavfli tarzda yoqilg'ining oqib chiqishi;

m) parvoz vaqtida shassi chiqarilishi yoki yig'ishtirilishi, shassining tavaqasi ochilishi yoki yopilishi;

n) havo kemasi yerda harakatlanishi vaqtida tormoz tizimining komponentlaridan kelib chiqqan tormoz boshqaruvi kuchining yo'qolishi;

o) havo kemasi planerida yirik ta'mirlash ishlarini o'tkazish zarurati;

p) ishlab chiquvchi/ishlab chiqaruvchi tomonidan ruxsat etilgan maksimal darajadan oshadigan yoriqlar, doimiy deformatsiya yoki havo kemasining planer konstruksiyasidagi korroziya;

r) parvoz vaqtida havo kemasining tizimlari yoki komponentlaridan kelib chiqqan avariya holatlari (dvigatel o'chib qolishi bundan mustasno);

s) ma'lum yoki shubha qilinayotgan mexanik shikastlanishlar yoki buzilishlar oqibatida yuzaga kelgan parvozni har qanday holda to'xtatib qo'yish, yo'nalishda havo kemasini rejadan tashqari almashtirish yoki parvoz rejasini o'zgartirish holatlari;

t) nosozlik, buzilish yoki nuqson tufayli muddatidan oldin yechib olingan dvigatellarning soni, bunda ularning seriyasi, modeli va ular o'rnatilgan havo kemasi turi ko'rsatiladi;

u) havo vinti parvoz vaqtida shamolning yo'nalishi bo'ylab o'rnatilishi, bunda havo vintining, u o'rnatilgan dvigatel va havo kemasining turi ko'rsatiladi;

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari, tashkilot havo kemasida o'rin olgan yoki har qanday vaqtda aniqlangan buzilish, nosozlik yoki nuqson havo kemasining xavfsiz ekspluatatsiyasiga tahdid solishi yoki tahdid solishi mumkinligi to'g'risidagi fikrda bo'lsa, har bir tashkilot bunday buzilish, nosozlik yoki nuqson haqida xabar berishi kerak.

50. Tashkilot uchishga yaroqlilik me'yorlarining buzilishlari to'g'risida ichki hisobot tizimini yaratishi va tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanmada bayon etishi zarur. Ushbu tizim bunday hisobot ma'lumotlarini yig'ish va baholashni, shu jumladan, mazkur Talablarning 49-bandiga binoan hisobot berilishi lozim bo'lgan holatlarni baholash natijalari bo'yicha saralash tartib-taomillarini ta'minlashi lozim. Ko'rsatilgan tartib-taomillar salbiy tendensiyalarni, kamchiliklarni bartaraf etish uchun amalga oshirilgan tuzatish ishlarini belgilashi, shuningdek, ko'rib chiqilayotgan holatlar bo'yicha barcha mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish tartibi hamda zaruratga ko'ra ushbu ma'lumotlarni tarqatish uslublarini o'z ichiga olishi kerak.

51. Tashkilot aniqlagan barcha qoidabuzilishlar, ularni aniqlash sharoitlari va tahlil qilish natijalari to'g'risida barcha kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotlar tashkilot tomonidan yuborilishi kerak.

52. Tashkilot havo kemasining uchishga yaroqliligi talab darajasida bo'lishini uning tijorat ekspluatanti bilan tuzilgan shartnoma asosida ta'minlayotgan bo'lsa, bu holda tashkilot belgilangan ekspluatantga qarashli havo kemasining yoki komponentning uchishga yaroqlilik me'yorlariga ta'sir ko'rsatuvchi har qanday holat to'g'risida havo kemasining ekspluatantiga ham hisobot yuborishi zarur.

53. Tashkilot imkon qadar qisqa muddatda, ammo hisobot berilishi majburiy bo'lgan holatlar aniqlangan vaqtdan e'tiboran 72 soatdan kechiktirmagan holda hisobot tayyorlashi va yuborishi shart.

Aviatsiya texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish xavfsizligi va sifati sohasidagi siyosat, sifat tizimi va qo'llaniladigan texnik xizmat ko'rsatish texnologiyalari

54. Tashkilot aviatsiya texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish xavfsizligi va sifati sohasida o'zining siyosatini o'rnatishi hamda mazkur Talablarning "Tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanma" bo'limiga muvofiq tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanmaga tegishli qoidalar kiritishi zarur.

55. Tashkilot texnik xizmat ko'rsatish ishlari amalga oshirilgan havo kemasi va komponentlar belgilangan talablarga javob berishini ta'minlash vositasi sifatida hujjatlar bilan rasmiylashtiriladigan sifat tizimini ishlab chiqishi va ta'minlab borishi lozim. Sifat tizimi tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlangan va tizimning asosiy hujjati hisoblangan sifat bo'yicha qo'llanma, shuningdek, quyidagilarni nazarda tutuvchi standartlar, ko'rsatmalar va boshqa hujjatlar bilan tartibga solinishi kerak:

- tashkilotning sifat sohasidagi siyosati;
- tashkilotning tashkiliy va ishlab chiqarish tuzilmasi;
- sifat tizimi tuzilmasi va boshqaruvining tashkil etilishi;
- sifat tizimi elementlari (funktsiyalari) tarkibi va ularga qo'yiladigan talablar, shu jumladan, ularni amalga oshirish tartib-taomillari;
- tashkilot mansabdor shaxslarining sifat tizimiga doir vazifalari va javobgarligi;
- tarkibiy bo'linmalar o'rtasida funksiyalarning taqsimlanishi;
- turli xil havo kemalariga va mahsulotlarga texnik xizmat ko'rsatish xususiyatlari.

56. Sifat tizimi talablari tushunarli shaklda bayon etilishi va bajaruvchilarga yetkazilishi lozim.

57. Sifat tizimi hujjatlari samarali qo'llanilishi va ularda belgilangan tartib va talablar amalga oshirilishi lozim.

58. Tashkilotda joriy etilgan sifat tizimi ushbu talablarga va sifat standartlari talablariga javob berishi kerak.

59. Tashkilotning sifat bo'yicha qo'llanmasida havo kemasining xususiyatlari va texnologik jarayonlarning ekspluatatsiya hujjatlari talablaridan chetga chiqishlarni (nomuvofiqliklar) ko'rib chiqish tartib-taomillari ko'zda tutilgan bo'lishi kerak. Havo kemasining xususiyatlari va parametrlari hamda mahsulotlar namunaviy konstruksiyaga nomuvofiqligi bo'yicha qabul qilingan qarorlar ularning ishlab chiquvchisi (ishlab chiqaruvchisi) bilan kelishilgan bo'lishi kerak. Mahsulotlar xususiyatlarining ruxsat etilgan nomuvofiqliklarini ko'rib chiqish materiallari (texnik yechimlar varaqalari, ruxsat berish kartalari va boshqalar) havo kemasiga (komponentga) texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi hujjatlar bilan birga saqlanishi lozim.

60. Ishlarning metrologik ta'minoti O'lchashlar birligini ta'minlash tizimi standartlariga rioya etgan holda amalga oshirilishi va quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- metrologiya laboratoriyalari mutaxassislarini tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish;
- o'lchash vositalarini tekshirish;
- o'lchash vositalarini metrologik attestatsiyadan o'tkazish va pasportlashtirish;
- o'lchash vositalarining reyestrini yuritish;
- tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan texnologik va konstruktorlik hujjatlarning metrologik ekspertizasini o'tkazish.

61. Tashkilotning sifat bo'yicha qo'llanmasida ushbu talablarga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish ishlarining to'g'ri bajarilishini ta'minlovchi tartib-taomillar va texnologiyalar nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Ushbu tartib-taomillarda inson omilining jihatlarini va insonning psixofiziologik xususiyatlari hisobga olingan bo'lishi hamda mazkur Talablarning "Texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnoma" bo'limiga muvofiq havo kemasi yoki komponent ekspluatatsiyasiga ruxsat berilishini

ta'minlash uchun ishlarni bajarishga doir aniq buyurtma yoki shartnoma mavjud bo'lishi nazarda tutilishi kerak.

Mazkur bo'limning talablariga muvofiq tashkilot tomonidan belgilangan yoki belgilanishi lozim bo'lgan texnik xizmat ko'rsatish tartib-taomillarida va texnologiyalarida texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarishga doir barcha jihatlar, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan xizmatlarni jalb etish va ularning bajarilishini nazorat qilish holatlari qamrab olingan bo'lishi, shuningdek, tashkilot tomonidan ishlash uchun qabul qilingan tartib nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

Havo kemasiga operativ va davriy texnik xizmat ko'rsatish ishlariga nisbatan tashkilot ko'p sonli xatoliklarni kamaytiruvchi va o'ta mas'uliyatli funksional tizimlardagi ishlarda xato harakatlarning oldini oluvchi tartib-taomillarni belgilashi zarur.

Belgilangan tartib-taomillarda aniq turdagi (shakldagi) texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish chog'ida bir xil ekzemplyardagi havo kemasining bittadan ortiq funksional tizimida o'rnatilgan bir nechta bir xil turdagi komponentlar qismlarga ajratilishi va yig'ilishini talab qiladigan ishlarni hamda tekshirishlarni bajarish bitta shaxsga ruxsat berilmasligi kafolatlanishi lozim. Ammo, tashkilotda ko'rsatilgan ishlarni bajaradigan shaxs bitta bo'lsa, u holda barcha bir xil turdagi ishlar yakuniga yetkazilgandan keyin ko'rsatilgan ishlar ushbu shaxs tomonidan qo'shimcha ravishda nazorat qilinishiga doir operatsiya tashkilotning ishchi texnologik kartalariga kiritilishi shart.

"O'zaviatsiya" agentligi yoki havo kemasini ishlab chiqaruvchi tomonidan tasdiqlangan hujjatlardan foydalangan holda, shikastlanishlar baholanishini hamda modifikatsiya qilish va ta'mirlash ishlari bajarilishini ta'minlovchi texnik xizmat ko'rsatish tartib-taomillari va texnologiyalari belgilangan bo'lishi shart.

62. Tashkilot quyidagi elementlarni o'z ichiga olgan sifat tizimini yaratishi lozim:

a) havo kemasiga va/yoki komponentlarga nisbatan o'rnatilgan talablarga muvofiqligini va uchishga yaroqlilik holatida bo'lgan havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatish ishlari to'g'ri bajarilishini ta'minlash uchun tartib-taomillar va texnologiyalarning to'g'riligini nazorat qilish maqsadida mustaqil auditorlik tekshiruvlari. Eng kichik tashkilotlarda sifat tizimining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish qismi ushbu Pasport asosida berilgan sertifikatga ega boshqa tashkilot bilan yoki tegishli texnik bilimlarga hamda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha hujjatlar bilan tasdiqlangan qoniqarli tajribaga ega bo'lgan jismoniy shaxs bilan tuzilgan shartnoma asosida tuzilishi mumkin;

b) mazkur Talablarning 4-bandiga binoan tayinlangan shaxsga yoki shaxslar guruhiga, shuningdek, mazkur bandning "a" kichik bandiga muvofiq o'tkazilgan mustaqil auditorlik tekshiruvlarining natijalari bo'yicha tuzilgan hisobotlar asosida tuzatish choralarining o'z vaqtida ko'rilishini ta'minlovchi tashkilot mas'ul rahbariga taqdim etiladigan sifat sohasidagi hisobot ma'lumotlari bo'yicha o'zaro muloqot tizimi.

63. Sifat bo'yicha qo'llanmada tashkilotning bugungi holatini aks ettiruvchi o'zgartirishlar o'z vaqtida kiritilishi kerak. Sifat bo'yicha qo'llanma va unga kiritiladigan o'zgartirishlar "O'zaviatsiya" agentligi bilan kelishilishi shart.

64. Tashkilotning hajmi, faoliyat doirasi, bajariladigan ishlar hajmi va turiga qarab, tashkilotning xohishiga ko'ra sifat bo'yicha qo'llanma tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanmaning havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha tarkibiy qismi bo'lishi mumkin.

Tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanma

65. Tashkilot "O'zaviatsiya" agentligiga quyidagi ma'lumotlardan iborat bo'lgan tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanmani (keyingi o'rinlarda — faoliyat bo'yicha qo'llanma) taqdim etishi zarur:

a) tashkilot faoliyati ushbu Pasport asosida berilgan sertifikat shartlariga muvofiqligi to'g'risida tashkilot rahbari tomonidan imzolangan deklaratsiya, shuningdek, ushbu muvofiqlikni talab darajasida muntazam ravishda ta'minlash bo'yicha majburiyatlar;

b) ushbu Talablarning "Aviatsiya texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish xavfsizligi va sifati sohasidagi siyosat, sifat tizimi va qo'llaniladigan texnik xizmat ko'rsatish texnologiyalari" bo'limiga muvofiq tashkilotda o'rnatilgan tashkilotning parvoz xavfsizligi va sifat sohasidagi siyosati, sifat tizimi va qo'llaniladigan texnik xizmat ko'rsatish texnologiyalari;

v) ushbu Talablarning 4-bandiga binoan tayinlangan shaxslarning ismi, familiyasi, otasining ismi va lavozimlari ro'yxati, huquq va majburiyatlari, ularning bo'ysunuvi ko'rsatilgan tashkilot boshqaruv tuzilmasi, shu jumladan, ular tashkilot nomidan to'g'ridan-to'g'ri "O'zaviatsiya" agentligiga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan masalalar;

g) so'ralayotgan tasdiqlash sohasiga muvofiq tashkilot faoliyat sohasining tavsifi;

d) tashkilotning arizasida ko'rsatilgan har bir manzilda joylashgan ishlab chiqarish obyektlarining umumiy tavsifi;

e) texnik xizmat ko'rsatish xodimlarining malaka darajasini belgilash uchun ishlatiladigan tartib-taomillarning tavsifi;

j) texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnomani imzolash vakolatiga ega bo'lgan xodimlar va ularning vakolatlari to'g'risida ma'lumotlar;

z) texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi hisobga olish ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish va saqlash usullarining tavsifi. Hisobga olish ma'lumotlarida texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnomani imzolashga doir barcha talablar bajarilganligi ko'rsatilgan bo'lishi kerak;

i) texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnomani tayyorlash tartibining ta'rifi hamda bunday guvohnomani imzolash uchun talab etiladigan shartlar va holatlarning ta'rifi;

k) tashkilot texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarini taqdim etayotgan havo kemasi ekspluatanti va/yoki tashkilot (shundaylar mavjud bo'lsa) bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirish tartibi;

l) havo kemasining uchishga yaroqliligini saqlashga salbiy ta'sir ko'rsatgan yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan buzilishlar, nosozliklar, nuqsonlar va boshqa hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni havo kemasi ishlab chiqaruvchisiga va "O'zaviatsiya" agentligiga taqdim etish tartib-taomillarining ta'rifi;

m) havo kemasi ishlab chiqaruvchisi tomonidan yuboriladigan uchishga yaroqlilikka oid ma'lumotlarni olish, o'zining hujjatlariga o'zgartirishlarni kiritish va tarqatish tartib-taomillarining ta'rifi;

n) texnik xizmat ko'rsatish liniyasi/tashqi liniya stansiyasi bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirish tartibi (mavjud bo'lsa);

o) zaruratga ko'ra ekspluatantning texnik xizmat ko'rsatish talablari va tartib-taomillariga muvofiqlikni ta'minlash uchun foydalaniladigan qo'shimcha tartib-taomillarning ta'rifi.

66. Faoliyat bo'yicha qo'llanmada tasdiqlanishi lozim bo'lgan faoliyat sohasi belgilanishi kerak (ushbu Pasportning 12-bandida "Tashkilotlarning faoliyat turlari bo'yicha beriladigan klasslar va ruxsatlar tizimi" jadvali keltirilgan).

67. Faoliyat bo'yicha qo'llanmaga tashkilotning joriy holatini aks ettiruvchi o'zgartirishlar o'z vaqtida kiritilishi kerak. Faoliyat bo'yicha qo'llanma va unga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar "O'zaviatsiya" agentligi bilan kelishilishi zarur.

Faoliyat bo'yicha qo'llanmaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar nusxalari qo'llanma taqdim etilgan barcha tashkilotlarga yoki shaxslarga darhol yuboriladi.

68. Mazkur Talablarning 67-bandiga rioya qilinishini istisno qilmagan holda, faoliyat bo'yicha qo'llanmaga kiritilayotgan ikkilamchi o'zgartirishlar tashkilot tomonidan qo'llanmani yuritish bo'yicha o'rnatilgan tartiblarni bajarish jarayonida tasdiqlanishi mumkin.

69. Yuqoridagi talablarga qo'shimcha ravishda faoliyat bo'yicha qo'llanmaga quyidagi qoidalarni kiritish kerak:

a) tashkil etish va boshqarish:

tashkilotning tartib-taomillari va xodimlarning ular bilan bog'liq vakolatlari, shuningdek, ularga doimiy ravishda rioya etib borilishi faoliyat bo'yicha qo'llanmada belgilanganligini tasdiqlaydigan va rahbar tomonidan imzolangan ariza;

65-bandning "v" kichik bandiga muvofiq tayinlangan shaxslar vakolatlarining taqsimoti va o'zaro bog'liqligi ko'rsatilgan tashkilot sxemasi;

tashkilotning tasdiqlangan faoliyat turlari, ruxsat beruvchi ruxsatnomalari, joylashgan joyi va xodimlariga nisbatan kiritilayotgan o'zgarishlar to'g'risida "O'zaviatsiya" agentligini xabardor qilish tartib-taomillari;

tasdiqlangan faoliyat turlari bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etuvchi boshqa tashkilotlar bilan munosabatlar yoki shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar;

faoliyat bo'yicha qo'llanmaga o'zgartirish kiritish tartibi;

b) texnik xizmat ko'rsatish tartib-taomillari:

yetkazib beruvchilarni baholash;

tashqi yetkazib beruvchilar tomonidan yetkazilgan havo kemalari komponentlari va materiallarning kirish nazorati;

texnik xizmat ko'rsatishda foydalanish uchun havo kemalarining komponentlarini va materiallarni omborga joylash, markirovkalash, hujjatlashtirish va omborxonadan berish;

asboblarni va uskunalarni qabul qilish;

asboblarni va uskunalarni kalibrovkalash;

xodimlar tomonidan asbob va uskunalardan foydalanish, shu jumladan, ruxsat etilgan boshqa turdagi asbob va uskunalardan foydalanish;

texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish uchun ishlab chiqarish bazasining tozalik standartlari;

texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar hamda ularning havo kemalari va komponentlarini yetkazib beruvchilarning ekspluatatsiya ma'lumotlari bilan o'zaro bog'liqligi, shu jumladan, o'z vaqtida o'zgartirishlarni kiritish hamda shtatdagi xodimlar foydalanishi uchun imkoniyat yaratish masalalari;

ta'mirlashning tartib-qoidalari va texnologiyalari;

havo kemasi ekspluatantining texnik xizmat ko'rsatish dasturiga muvofiqlikni ta'minlash tartib-taomillari;

uchishga yaroqlilik direktivalarini amalga oshirish tartibi;

majburiy bo'lmagan modifikatsiyalarni bajarish tartibi;

texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha foydalaniladigan hujjatlar va ularni yuritish;

hisobga olinadigan texnik ma'lumotlarni nazorat qilish;

	texnik xizmat ko'rsatishda aniqlangan nuqsonlar bilan ishlash; texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnomani rasmiylashtirish; ekspluatant uchun ma'lumotlarni hisobga olish (tashkilotning o'zi ekspluatant bo'lmasa); ushbu Talablarning "Uchishga yaroqlilik me'yorlari buzilishi bo'yicha hisobot yuritish" bo'limiga binoan nuqsonlar va boshqa hodisalar haqida hisobotlar; havo kemalarining nuqsonlari bo'lgan komponentlarini omborga qaytarish tartibi; ta'mirlash va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun tashqi pudratchilarga yuborilgan nuqsonli komponentlarning aylanmasini nazorat qilish; texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi hisobga olish ma'lumotlarini yuritish bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimni boshqarish; subpudratchilar bilan ishlash tartibi; texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha maxsus tartib-taomillar, masalan: dvigatelni sinash (tekshirish); havo kemasining germetikligini tekshirish (bosim ostida sinab ko'riladi); havo kemalarini shatakka olish; havo kemalarini yerda boshqarish; v) operativ va davriy texnik xizmat ko'rsatish tartib-taomillari: havo kemalari komponentlari, asboblari, uskunalari va boshqalar aylanmasini nazorat qilish; havo kemalariga yoqilg'i quyish, tayyorlash, muz qoplashiga qarshi himoya qilish va boshqa ishlar bilan bog'liq bo'lgan operativ texnik xizmat ko'rsatish tartib-taomillari; texnik xizmat ko'rsatish vaqtida nuqsonlar va takrorlanuvchi nuqsonlar bilan ishlash; birgalikda foydalaniladigan tarkibiy qismlardan va ijaraga olingan tarkibiy qismlaridan (pooling) foydalanish tartibi; texnik xizmat ko'rsatish vaqtida aniqlangan havo kemalarining nuqsonli komponentlarini omborga qaytarish tartibi; g) sifat tizimi tartib-taomillari: tashkilotda foydalaniladigan tartib-taomillar (quality audit) sifatini nazorat qilish; havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish; kamchiliklarni bartaraf etish sifatini nazorat qilish; texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi guvohnomani imzolaydigan xodimlarni (ruxsat beruvchi xodimlar — certifying staff) tayyorlash va ishga qo'yish tartib-taomillari; ruxsat beruvchi xodimlar reyestrini yuritish; sifat tizimi xodimlarini (quality audit personnel) tayyorlash va ishga qo'yish tartib-taomillari; aviamexaniklarni tayyorlash va ishga qo'yish tartib-taomillari; qabul qilingan tartib-taomillarga rioya qilishdan ozod qilish tartibi (exemption process); tashkilotda qabul qilingan tartib-taomillardan chetga chiqish uchun ruxsat berish tartibi; putur yetkazmasdan nazorat qilish (NDT), payvandlash kabi va boshqalar maxsus ishlar turlariga ruxsat berish tartibi; ushbu tashkilotda joylashgan va berilgan tasdiqlash sertifikatida nazarda tutilgan faoliyatga aloqador ishlarda band bo'lgan yetkazib beruvchilar brigadalarining faoliyatini nazorat qilish;
--	--

subpudratchilar bilan ishlash sifatini tekshirish (yoki ularning akkreditatsiyasini uchinchi shaxslar tomonidan tan olish, masalan, putur yetkazmasdan nazorat qilish sohasida ishlaydigan va “O‘zaviatsiya” agentligidan boshqa davlat tomonidan tartibga solish organi tomonidan tasdiqlangan tashkilotlarning xizmatlaridan foydalanish);

d) berilgan tasdiqlash sertifikatini vakolatlari va shartlariga muvofiq tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatda foydalaniladigan standart hujjatlarning misollari, masalan:

texnik hujjatlarni yuritish shakllari;

nuqsonlarni va ularni bartaraf etish ishlarini hisobga olish shakllari.

Tashkilotning huquqlari

70. Tashkilot quyidagi ishlarni bajarish huquqiga ega:

a) tasdiqlash sertifikatini berilgan har qanday havo kemasiga va/yoki komponentga sertifikatda va faoliyat bo‘yicha qo‘llanmada ko‘rsatilgan joylashish manzilida texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini bajarish;

b) tasdiqlash sertifikatini berilgan har qanday havo kemasiga va/yoki komponentga birinchi tashkilotning sifat tizimi doirasida ishlaydigan boshqa tashkilotda texnik xizmat ko‘rsatish ishlari bajarilishini tashkil etish. Mazkur holat bu kabi texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini hamda mazkur Talablarning 66-bandiga muvofiq tasdiqlangan faoliyat sohasi bilan cheklangan ishlarni bajarish uchun ushbu Pasportga binoan tasdiqlash sertifikatiga ega bo‘lmagan tashkilotlar tomonidan bajariladigan ishlarga tegishlidir.

Faoliyatining bu sohasiga havo kemasiga davriy texnik xizmat ko‘rsatish yoki dvigatel yoxud uning modulini rejali nazorat ko‘rigidan o‘tkazish yoki ta‘mirlash ishlarining to‘la hajmini kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi;

v) tasdiqlash sertifikatini berilgan har qanday havo kemasiga va/yoki komponentga har qanday joylarda texnik xizmat ko‘rsatish, bunda quyidagi shartlar belgilanadi:

aniqlangan buzilishlar va shikastlanishlarni bartaraf etish yoxud texnik xizmat ko‘rsatishni operativ bajarish uchun birdan paydo bo‘lgan zaruratni ta‘minlash maqsadida bu kabi ishlarni amalga oshirish zarurati bo‘lganda;

bu kabi ishlarni faoliyat bo‘yicha qo‘llanmaning qoidalariga rioya qilgan holda bajarish;

g) tasdiqlash sertifikatini berilgan har qanday havo kemasi va/yoki komponentga faqat murakkab bo‘lmagan texnik xizmat ko‘rsatish turlarini bajarish imkoniyatiga ega bo‘lgan, operativ texnik xizmat ko‘rsatish punkti deb belgilangan joylarda texnik xizmat ko‘rsatish, bunda faoliyat bo‘yicha qo‘llanmada bunday joylar ro‘yxati mavjud bo‘lishi va ko‘rsatilgan ishlarni ushbu joylarda bajarish uchun ruxsat berilgan bo‘lishi shart;

d) texnik xizmat ko‘rsatish ishlari yakuniga yetkazilgandan so‘ng mazkur Talablarning “Texnik xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi guvohnoma” bo‘limiga binoan texnik xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi guvohnomani rasmiylashtirish.

Tashkilotning ishlar turi bo‘yicha cheklavlari

71. Tashkilot texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini bajarish uchun ishlab chiqarish binolari, uskunalari, asboblari, materiallari, texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha hujjatlar va ruxsat beruvchi xodimlar mavjud bo‘lgandagina tasdiqlash sertifikatini berilgan havo kemasiga va/yoki komponentga texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini bajarishi mumkin.

Tasdiqlangan tashkilotda o‘zgarishlar

72. “O‘zaviatsiya” agentligi tashkilotning ruxsat berishga oid talab va shartlarga doimiy ravishda muvofiqligini o‘rnatishi va zarurat bo‘lganda tasdiqlash sertifikatiga o‘zgartirishlar kiritishi uchun tashkilot barcha

		rejalashtirilayotgan quyidagi o'zgartirishlar to'g'risida, ular kiritilmasidan oldin xabar berishi zarur: a) tashkilotning nomi; b) tashkilot joylashgan manzil; v) mas'ul rahbar; g) mazkur Talablarning 4-bandiga muvofiq tayinlangan har qanday shaxs (rahbar xodimlarning shaxsiy ma'lumotlari, shuningdek, qaysi ta'lim muassasasini tamomlaganligi hamda ish staji to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etgan holda); d) tasdiqlashga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish binolari, uskunalari, asboblari, materiallari, ish tartibi, texnologiyalar va ruxsat beruvchi xodimlar.
10.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berishda kelishiladigan organlar:	Mavjud emas
11.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilish muddati:	3 yil
12.	Izoh:	Umumiy qoidalar 1. Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini tasdiqlangan faoliyat sohasi ro'yxati ilova qilingan tashkilot sertifikatini mavjudligi sharti bilan havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha tasdiqlangan tashkilot (keyingi o'rinlarda — tashkilot) amalga oshiradi. Sertifikatga ega bo'lmagan tashkilot havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish huquqiga ega emas. 2. Tashkilotning quyidagi faoliyat sohasi "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan tasdiqlanishi lozim: a) havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish dasturiga (reglamentiga) muvofiq havo kemasi, aviadvigatellar va ularning komponentlariga texnik xizmat ko'rsatish ishlarining barcha turlari; b) maxsus ishlar (putur yetkazmasdan nazorat qilish, havo kemasi modifikatsiyalarini bajarish, havo kemasining massasi va markazlanishini aniqlash, dvigatellar diagnostikasi va boshqalar). 3. Faoliyat sohasini tasdiqlash uchun tashkilotni sertifikatlash va sertifikatni berish "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan mazkur Pasport asosida amalga oshiriladi. 4. Vakolatli organ arizani ko'rib chiqish muddati davomida amalga oshiriladigan o'rganishlarni o'tkazishi uchun xarajatlar (xizmat safari va yo'lda bo'lgan vaqt uchun kundalik xarajatlar, mehmonxonalarda yashash xarajatlari, transport xarajatlari, kirish vizasini rasmiylashtirish va sug'urta polisini sotib olish xarajatlari) talabgor (ariza beruvchi) tomonidan amalga oshiriladi.

5. Tasdiqlangan faoliyat sohasi to'liq havo kemasiga yoki uning komponentlariga texnik xizmat ko'rsatish yoki ushbu ishlarni birgalikda turli ko'rinishda bajarish ishlarini o'z ichiga olishi mumkin.

6. Tashkilot quyidagicha faoliyat yuritishi mumkin:

a) havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lgan mustaqil tashkilot sifatida;

b) havo kemasi ekspluatanti, aviakompaniya, aeroport, aviata'mirlash yoki aviasozlik zavodining havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarishga ixtisoslashtirilgan, havo kemalariga asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lmagan texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajaradigan bo'linmasi sifatida.

7. Tasdiqlangan tashkilot havo kemasi ekspluatantiga qarashli tashkilotning bir qismi hisoblanmasa, u holda havo kemasi ekspluatanti va tashkilot o'rtasida yozma shaklda rasmiylashtirilgan, havo kemasining uchishga yaroqliligini saqlash bo'yicha tomonlarning vazifalari va majburiyatlari belgilangan shartnoma tuzilishi kerak.

Mazkur shartnomaning texnik jihatlarini "O'zaviatsiya" agentligi bilan kelishilishi lozim.

8. Tashkilot havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish vaqtida texnik xizmat ko'rsatish dasturida (reglamentida) nazarda tutilgan ba'zi turdagi ishlarni boshqa tashkilotlarga shartnoma asosida topshirishi mumkin. Bu shartnomaning texnik tomonlari "O'zaviatsiya" agentligi bilan kelishib olinishi lozim.

9. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining (IKAO) standartlari talablariga va tavsiya qilingan amaliyotga muvofiq "O'zaviatsiya" agentligi talabgorga ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berganlik uchun yig'im to'langan sanadan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay sertifikatning asl nusxasini beradi.

Sertifikat ingliz va rus tillariga tarjima qilingan bo'lishi mumkin.

Sertifikat "O'zaviatsiya" agentligi direktori yoki "O'zaviatsiya" agentligi direktorining buyrug'i bilan vakolat berilgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi va "O'zaviatsiya" agentligining muhri bilan tasdiqlanadi.

10. Tashkilot havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha bitta yoki bir nechta liniya/tashqi liniya stansiyasiga ega bo'lsa, bu holda tashkilotning tasdiqlangan faoliyat sohasi ro'yxatlari havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha asosiy stansiyaga va havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha har bir liniya yoki tashqi liniya stansiyasiga beriladi.

Tashkilotning tasdiqlangan faoliyat sohalari ro'yxati "O'zaviatsiya" agentligi direktori yoki "O'zaviatsiya" agentligi direktorining buyrug'i bilan vakolat berilgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi va "O'zaviatsiya" agentligining muhri bilan tasdiqlanadi.

11. Vakolatli organ arizani ko'rib chiqish muddati davomida amalga oshiriladigan o'rganishlar uchun xarajatlar (xizmat safari va yo'lda bo'lgan vaqt uchun kundalik xarajatlar, mehmonxonalarda yashash xarajatlari, transport xarajatlari, kirish vizasini rasmiylashtirish va sug'urta polisini sotib olish xarajatlari) haqiqiy xarajatlar summasi bo'yicha talabgor (ariza beruvchi) tomonidan yozma shartnomaga ko'ra qoplanadi.

Ariza beruvchini sertifikatlash

12. Ariza beruvchini sertifikatlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

a) ariza beruvchi tomonidan rasmiy ariza taqdim etish;

b) arizani dastlabki baholash;

v) asoslovchi hujjatlarni ekspertiza qilish;

g) ariza beruvchining ruxsat etishga oid talab va shartlarga muvofiqligini tekshirish bo'yicha inspektorlik tekshiruvini o'tkazish hamda tekshiruv

natijalari bo'yicha aniqlangan nomuvofiqliklar ko'rsatilgan hisobot rasmiylashtirish;

d) ariza beruvchidan asoslovchi hujjatlarning ekspertizasi natijasida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganligi to'g'risidagi hujjatlarni va 1-toifali nomuvofiqliklar bartaraf qilingani to'g'risidagi hisobotni olish;

e) tekshiruv natijalari bo'yicha sertifikat berish yoki bermaslik to'g'risidagi qaror ko'rsatilgan xulosa tayyorlash;

j) sertifikatni va tashkilot tasdiqlangan faoliyat sohalari ro'yxatini rasmiylashtirish.

Arizani dastlabki baholash va asoslovchi hujjatlarni ekspertiza qilish

13. Arizani dastlabki baholash arizani ko'rib chiqish uchun yig'im to'langanidan so'ng amalga oshiriladi.

Arizani dastlabki baholashda quyidagilar tekshiriladi:

a) ariza beruvchi haqidagi ma'lumotlarning yetarliligi va arizaning uni rasmiylashtirish bo'yicha belgilangan talablarga muvofiqligi;

b) asoslovchi hujjatlarning to'liqligi.

14. Ariza va asoslovchi hujjatlar kelib tushgandan so'ng, "O'zaviatsiya" agentligi asoslovchi hujjatlarni ekspertizadan o'tkazadi.

Inspektorlik tekshiruvini o'tkazish

15. Asoslovchi hujjatlar ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng ariza beruvchi bilan kelishilgan holda inspektorlik tekshiruvini o'tkazish sanasi va muddati aniqlanadi.

16. "O'zaviatsiya" agentligi direktori tomonidan inspektorlik tekshiruvini o'tkazish bo'yicha komissiyani tuzish to'g'risida buyruq chiqarilib, unda komissiya tarkibi hamda inspektorlik tekshiruvlarini o'tkazish dasturi va muddati belgilanadi.

17. Komissiya tarkibiga boshqa tashkilotlarning rahbarlari bilan kelishilgan holda ularning mutaxassislari (ekspertlari) kiritilishi mumkin.

18. Inspektorlik tekshiruvlarining dasturi aniq bir ariza beruvchining xususiyatlari hisobga olingan holda, inspektorlik tekshiruvlarining namunaviy dasturi asosida ishlab chiqiladi. Inspektorlik tekshiruvlarining namunaviy dasturi "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan belgilanadi.

19. Inspektorlik tekshiruvlarining bevosita o'tkazilishi, komissiya a'zolari o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi va tekshiruv natijalarining rasmiylashtirilishi uchun javobgarlik komissiya raisi zimmasiga yuklanadi.

20. "O'zaviatsiya" agentligining buyrug'i va inspektorlik tekshiruvlarining dasturi inspektorlik tekshiruvlari boshlanishidan besh kundan oshmagan muddatda ariza beruvchiga yuboriladi va komissiya a'zolarining e'tiboriga yetkaziladi.

21. Inspektorlik tekshiruvlarining maqsadi ariza beruvchi o'rnatilgan talablarga muvofiqligini hamda tashkilotning haqiqiy holati va arizada ko'rsatilgan ishlarning barcha turlari bo'yicha ariza beruvchining faoliyati taqdim etilgan hujjatlarda to'g'ri aks ettirilganligini tasdiqlashdan iborat.

22. Tashkilotda inspektorlik tekshiruvlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'tkaziladi:

a) ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

b) axborot bilan ta'minlanganlik;

v) xodimlar bilan ta'minlanganlik;

g) ishlab chiqarish bazasi;

d) texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarining tashkil etilishi;

e) texnik xizmat ko'rsatishning sifat tizimi;

j) texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarining moddiy-texnik ta'minoti;

z) texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarining moliyaviy ta'minoti.

Inspektorlik tekshiruvlarining natijalarini rasmiylashtirish

23. Inspektorlik tekshiruvlarining natijalari har bir tekshiruv yo'nalishi bo'yicha hisobot ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Nomuvofiqliklar mavjud bo'lgan taqdirda, hisobot ariza beruvchi yoki uning vakili tomonidan imzolanishi shart. Hisobot shakli va uni rasmiylashtirish tartibi "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan belgilanadi.

24. Inspektorlik tekshiruvlari jarayonida aniqlangan nomuvofiqliklar 1-toifali va 2-toifali nomuvofiqliklarga bo'linadi.

1-toifali nomuvofiqliklar — havo kemasining uchishga yaroqlilik darajasini saqlab turishni ta'minlashga to'sqinlik qiladigan har qanday nomuvofiqliklar. 1-toifali nomuvofiqliklar sertifikatning berilishiga to'sqinlik qiladi va Ruxsat etishga oid talab va shartlarda "*" bilan belgilangan.

2-toifali nomuvofiqliklar — havo kemasining uchishga yaroqlilik darajasini saqlab turish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo belgilangan talablar yoki tartiblardan chetga chiqishlarni namoyon etuvchi har qanday nomuvofiqliklar. 2-toifali nomuvofiqliklar bo'lib, sertifikatning berilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Inspektorlik tekshiruvlarining natijalari bo'yicha qaror qabul qilish

25. Xulosa — inspektorlik tekshiruvlarining natijalari bo'yicha yakuniy hujjat hisoblanib, unda tekshiruvlarning natijalari, "O'zaviatsiya" agentligi komissiyasining xulosalari, bajarilishi majburiy bo'lgan tavsiyalar va 1-toifali nomuvofiqliklarni bartaraf etish muddatlari aks ettiriladi. Xulosaning nusxasi ariza beruvchiga yuboriladi.

26. Ariza beruvchi xulosalarni va tavsiyalarni inobatga olgan holda, "O'zaviatsiya" agentligiga quyidagilarni taqdim etishi kerak:

a) 1-toifali nomuvofiqliklarning bartaraf etilganligi to'g'risida hisobot (zarurat bo'lganda, "O'zaviatsiya" agentligining qarori bo'yicha, nomuvofiqliklarning haqiqatan bartaraf etilganligi tekshiruvi o'tkaziladi);

b) 2-toifali nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi. Bu rejada inspektorlik tekshiruvlarida aniqlangan nomuvofiqliklar, ularning bartaraf etilishi bo'yicha tadbirlar, bajarish muddati va tadbirlarning bajarilishi bo'yicha mas'ul shaxslar ko'rsatiladi.

27. 2-toifali nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi "O'zaviatsiya" agentligi bilan kelishilgan bo'lishi kerak. "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni hisobga olgan holda, ariza beruvchi tomonidan chora-tadbirlar va muddatlar to'g'rilangan bo'lishi kerak.

28. 25-bandning "a" kichik bandiga muvofiq aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilmagan yoki xulosada belgilangan muddatda bartaraf etilmagan bo'lsa, "O'zaviatsiya" agentligi sertifikatni berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Sertifikat berish

29. Sertifikatning asl nusxasi xulosada qayd etilgan "O'zaviatsiya" agentligining qarori bo'yicha rasmiylashtiriladi.

30. Ariza beruvchi yangi sertifikat yoki tasdiqlangan faoliyat sohalari ro'yxatini olgandan keyin ilgari berilgan sertifikat yoki tasdiqlangan faoliyat sohalari ro'yxati "O'zaviatsiya" agentligiga qaytarilishi kerak.

Sertifikatni qayta rasmiylashtirish

31. Sertifikat Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to'g'risidagi yagona nizomning 4-bobida ko'rsatilgan hollarda va o'rnatilgan tartibda hamda Tashkilotning tasdiqlangan faoliyat sohasini qisqartirish hollarida qayta rasmiylashtiriladi.

Tasdiqlangan faoliyat sohasini kengaytirish

32. Tashkilotning tasdiqlangan faoliyat sohasini kengaytirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

a) tashkilot tomonidan yangi turdagi havo kemalari, komponentlar va texnologik jarayonlarni o'zlashtirish;

b) liniyalı/tashqi liniyalı stansiyanı tashkil etish.

33. Tashkilotning tasdiqlangan faoliyat sohasi sertifikatni berish uchun o'rnatilgan tartibda kengaytiriladi.

34. Tashkilotning tasdiqlangan faoliyat sohasini kengaytirish bo'yicha arizani ko'rib chiqish uchun mazkur Pasportning 6 va 7-bandlarida nazarda tutilgan yig'im undiriladi.

35. Faoliyat sohasi yangi tasdiqlangan faoliyat sohalari ro'yxatini berish orqali kengaytiriladi.

36. Yangi tasdiqlangan faoliyat sohalari ro'yxatining amal qilish muddati sertifikatning amal qilish muddati doirasida belgilanadi.

Sertifikatning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va sertifikatni bekor qilish

37. Sertifikatning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va sertifikatni bekor qilish Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to'g'risidagi yagona nizomning 5-bobida ko'rsatilgan hollarda va o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

38. Sertifikatning amal qilishi quyidagi hollarda ham to'xtatib turiladi:

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida amal qilgan va tashkilotni tasdiqlashda rioya etilgan talablarni buzish (ularga rioya qilmaslik) hollari aniqlanganda;

"O'zaviatsiya" agentligining parvozlar xavfsizligiga tahdid soluvchi yoki umuman tashkilotning faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalari bajarilmaganda.

Xorijiy tashkilotlarni sertifikatlash

39. Xorijiy tashkilotlarni sertifikatlash jarayoni mazkur tashkilot O'zbekiston Respublikasi ekspluatantlarining havo kemalariga va/yoki ularning komponentlariga reja asosida texnik xizmat ko'rsatish ishlarini uzoq muddatli shartnomalar asosida bajarishni ko'zda tutgan holda va texnik xizmat ko'rsatgan havo kemasiga (komponentiga) ekspluatatsiya qilishga ruxsat beruvchi guvohnomani berish huquqiga ega bo'lgan hollarda amalga oshiriladi.

40. Xorijiy tashkilotni sertifikatlash tartibi O'zbekiston Respublikasi tashkilotini sertifikatlash tartibidan farq qilmaydi.

41. Xorijiy tashkilotlar quyidagi shartlarga rioya etilgandagina sertifikatlanadi:

a) havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotni tasdiqlash to'g'risidagi hujjat Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotiga (IKAO) a'zo bo'lgan xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan bo'lishi lozim;

b) havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotni tasdiqlash to'g'risidagi hujjatni bergan vakolatli organ tomonidan tashkilotga qo'yilgan talablar Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IKAO) tomonidan belgilangan minimal standartlarga javob berishi yoki ulardan yuqori bo'lishi lozim.

42. Xorijiy tashkilot mas'ul rahbar (bosh boshqaruvchi) boshchiligidagi tashkilotga nisbatan umumiy ravishda sertifikatlanadi. Tashkilotning mas'ul rahbari sertifikatni bergan vakolatli organ va "O'zaviatsiya" agentligi oldida sertifikatning shartlari hamda cheklovlariga muvofiqlikni ta'minlash uchun to'liq javobgarlikni zimmasiga olishi lozim.

43. "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan tasdiqlangan tashkilotlar bilan shartnoma asosida ishlarni bajaradigan xorijiy tashkilotlarga sertifikat berilishi

talab qilinmaydi. Bunda "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan tasdiqlangan tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanmasida quyidagi talablarga asoslangan tegishli tartib-taomillar mavjud bo'lish sharti qo'yiladi:

a) tashkilot shartnoma bo'yicha topshirilayotgan ishlarga nisbatan sertifikatga ega bo'lishi kerak;

b) tashkilot yordamchi pudratchining muvofiqligini baholashni (audit) amalga oshirishi kerak;

v) tashkilot shartnoma bo'yicha topshirilgan ishlar bajarilgandan keyin sifatni nazorat qilish va ekspluatatsiya qilishga ruxsat berish, shu jumladan, havo kemasining uchishga yaroqliligini tegishli darajada saqlab turishga doir tegishli talablarga rioya qilish bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasida saqlab qolishi lozim;

g) tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanmada shartnoma asosida topshirilgan faoliyat turlariga nisbatan boshqarish va nazorat qilish zarur bo'lgan tartib-taomillarning ta'rifi, shuningdek, ushbu faoliyat turlarini boshqarish topshirilgan xodimlar uchun ko'rsatmalar bo'lishi kerak.

Tashkilotning faoliyatini nazorat qilish

44. Tashkilotning faoliyati "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan inspektorlik tekshiruvlari orqali quyidagi maqsadlarda nazorat qilinadi:

a) tashkilotni tasdiqlashda rioya etilgan talablarga tashkilot shu kunda muvofiqligini baholash;

b) tashkilotning faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, tashkilotning amaldagi hujjatlariga kiritilishi talab etiladigan o'zgarishlarni aniqlash, bu o'zgarishlarning tashkilot faoliyatiga ko'rsatadigan ta'sirini baholash;

v) tasdiqlangan faoliyat sohasi ro'yxatiga kiradigan aniq ishlarning bajarilishini nazorat qilish.

45. Tekshiruvlar quyidagi turlarga bo'linadi:

a) reja asosida inspeksiya tekshiruvlari;

b) rejadan tashqari inspeksiya tekshiruvlari.

46. Reja asosida inspeksiya tekshiruvlari fuqaro aviatsiyasi tashkilotlarining faoliyatini nazorat qilish jadvaliga muvofiq, lekin o'n ikki oyda kamida bir marotaba o'tkaziladi.

47. Rejadan tashqari inspeksiya tekshiruvlari sertifikat berishda belgilangan shartlar va cheklovlar talablariga muvofiqlikni baholash uchun o'tkaziladi.

48. Tashkilotda rejadan tashqari inspektorlik tekshiruvlarini o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

a) havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish sifatining darajasi pasayganligi va havo kemalarining parvozlar xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi jiddiy qoidabuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar;

b) tashkilotning faoliyati jarayonida vujudga kelgan belgilangan talablarga nomuvofiqligi.

49. Inspektorlik tekshiruvlarini o'tkazish tartibi ushbu Pasport talablariga javob berishi kerak. Tekshiruvlar bo'yicha hujjatlar "O'zaviatsiya" agentligida 1 yil davomida saqlanadi.

50. Tashkilot "O'zaviatsiya" agentligining komissiyasi uchun barcha ish sharoitlarini yaratib berishi shart. Komissiyaning ish tartibi "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan belgilanadi.

51. Inspektorlik tekshiruvlari natijalari bo'yicha hisobot rasmiylashtiriladi. Hisobotda tekshirish jarayonida aniqlangan nomuvofiqliklar, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar va tekshirilayotgan tashkilot faoliyatining tekshirilgan yo'nalishlari bo'yicha belgilangan talablarga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Nomuvofiqliklar aniqlanganda, hisobot tekshirilayotgan tashkilotning vakili tomonidan imzolanishi lozim.

52. Sertifikat egasi aniqlangan nomuvofiqliklar to'g'risida hisobotni olgach, nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar rejasini ishlab chiqishi va kelishilgan muddatda nomuvofiqliklarning muvaffaqiyatli bartaraf etilganligi to'g'risida "O'zaviatsiya" agentligiga hisobot taqdim etishi lozim.

Tashkilotlarning faoliyat turlari bo'yicha beriladigan klasslar va ruxsatlar

TIZIMI

1. Ishlarning turlari bo'yicha standartlashtirilgan ruxsatlar va aviatsiya texnikasi klasslari ro'yxati "Tashkilotlarning faoliyat turlari bo'yicha beriladigan klasslar va ruxsatlar tizimi" jadvalida berilgan.

Tashkilot tegishli cheklovlar bilan tasdiqlangan ruxsatni olishi kerak (bir klassda bitta ruxsat yoki barcha klasslarda barcha ruxsat shaklida o'zgarishi mumkin).

2. Tashkilot ushbu ruxsatlar tizimining 11-bandi talablarini hisobga olgan holda, "Tashkilotlarning faoliyat turlari bo'yicha beriladigan klasslar va ruxsatlar tizimi" jadvaliga muvofiq tegishli klasslar va ishlarni bajarishga beriladigan ruxsatlarni tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanmasining tasdiqlangan faoliyat sohasida ko'rsatishi shart.

3. "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan tasdiqlangan ishlarning turlari bo'yicha klasslar va ruxsatlar doirasida tashkilotning faoliyati bo'yicha qo'llanmasida ko'rsatilgan faoliyat sohasi, tasdiqlashning aniq chegaralari belgilanadi. Shuning uchun ham ishlarning turlari bo'yicha tasdiqlangan klasslar va beriladigan ruxsatlar hamda tashkilot faoliyat sohasi bir-biri bilan uyg'unlashgan bo'lishi lozim.

4. "A" toifali ruxsat klassi tashkilot havo kemasi bortidan komponentlarni demontaj qilmagan holda, havo kemalariga va komponentlarga (shu jumladan, dvigatel va/yoki yordamchi kuch qurilmalariga) texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish huquqiga egaligini bildiradi. Istisno tariqasida, "O'zaviatsiya" agentligi bilan kelishilgan faoliyat bo'yicha qo'llanmada nazorat tartib-taomillari ko'rsatilganda, texnik xizmat ko'rsatish imkonini yaratish maqsadida demontaj qilish havo kemasining ekspluatatsiya hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri ruxsat etilganda, texnik xizmat ko'rsatish vaqtida komponentlarni vaqtincha demontaj qilish mumkin. Cheklovlar bo'limi texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha bunday ishlarning ta'rifini o'z ichiga oladi.

5. "V" toifali ruxsat klassi tashkilot demontaj qilingan dvigatel va/yoki yordamchi kuch qurilmalariga faqat dvigatel va/yoki yordamchi kuch qurilmalaridan komponentlar demontaj qilinmagan holda, texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish huquqiga egaligini bildiradi. Texnik xizmat ko'rsatish imkonini yaratish maqsadida demontaj qilish dvigatel va/yoki yordamchi kuch qurilmalarining ekspluatatsiya hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri ruxsat etilganda, texnik xizmat ko'rsatish vaqtida komponentlarni vaqtincha demontaj qilish hollari bundan mustasno. Cheklovlar bo'limi texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha bunday ishlarning ta'rifini o'z ichiga oladi va bu tasdiqlashning amal qilish doirasini belgilaydi. "V" toifali ruxsat klassiga ega bo'lgan tashkilot nazorat qilish bo'yicha tegishli tartib-taomillar faoliyat bo'yicha qo'llanmada ko'rsatilgan bo'lsa, operativ va davriy texnik xizmat ko'rsatish vaqtida havo kemasiga o'rnatilgan dvigatel va/yoki yordamchi kuch qurilmalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish huquqiga ega. Faoliyat bo'yicha qo'llanmadagi tasdiqlangan faoliyat sohasida "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan ruxsat berilgan faoliyat turlari aks ettirilgan bo'lishi lozim.

6. “S” toifali ruxsat klassi tashkilot havo kemasiga yoki dvigatel va/yoki yordamchi kuch qurilmalariga oʻrnatish uchun moʻljallangan, havo kemasi bortidan demontaj qilingan komponentlarga (dvigatel va/yoki yordamchi kuch qurilmalari bundan mustasno) texnik xizmat koʻrsatish ishlarini bajarish huquqiga egaligini bildiradi. Cheklovlar boʻlimi texnik xizmat koʻrsatish boʻyicha bunday ishlarining tavsifini oʻz ichiga oladi. Tasdiqlashning amal qilish doirasini belgilaydi.

Shu bilan birga, “S” toifali ruxsat klassiga ega boʻlgan tashkilot faoliyati boʻyicha qoʻllanmasida nazoratga oid tegishli tartib-taomillar koʻrsatilgan boʻlsa, havo kemasiga operativ va davriy texnik xizmat koʻrsatish jarayonida yoxud dvigatel va/yoki yordamchi kuch qurilmalariga texnik xizmat koʻrsatish bazasida havo kemalariga oʻrnatilgan komponentlarga texnik xizmat koʻrsatish ishlarini bajarish huquqiga ega. Faoliyat boʻyicha qoʻllanmadagi tasdiqlangan faoliyat sohasida “Oʻzaviatsiya” agentligi tomonidan ruxsat berilgan faoliyat turlari aks ettirilgan boʻlishi lozim.

7. “D” toifali ruxsat klassini taʼriflash ehtiyoji yoʻq va ushbu klass aniq bir havo kemasi, dvigatel yoki komponent bilan bogʻliq emas. Maxsus ishlar turiga kompozit materiallarning yuzasiga ishlov berish, qum (drob) bilan ishlov berish (mustahkamlash), qoplamalar, boʻyash, putur yetkazmasdan nazorat (NDT) qilish, payvandlash va boshqalar kiradi.

8. “A” toifali ruxsat klasslari “operativ texnik xizmat koʻrsatish” yoki “davriy texnik xizmat koʻrsatish” turlariga boʻlinadi. Tashkilot tomonidan davriy texnik xizmat koʻrsatish, operativ texnik xizmat koʻrsatish yoki ikkala toifa boʻyicha ham tasdiqlangan boʻlishi mumkin. Tashkilot manzilida joylashgan operativ texnik xizmat koʻrsatish xizmati operativ texnik xizmat koʻrsatish toifasi boʻyicha tasdiqlanishi lozim.

9. “Cheklovlar” boʻlimi muayyan bir tashkilotning tasdiqlangan faoliyat sohasi roʻyxatini shakllantirishda foydalaniladi. “Tashkilotlarning faoliyat turlari boʻyicha beriladigan klasslar va ruxsatlar tizimi” jadvali mumkin boʻlgan cheklovlar turlarini belgilaydi, bunda texnik xizmat koʻrsatish ishlarining turlari har bir ruxsat klassi oxirida yoziladi, shuning uchun havo kemasi yoki dvigatelning turi yoki ishlab chiqaruvchisiga emas, balki har bir tashkilotga muhimroq boʻlgan texnik xizmat koʻrsatish ishlariga koʻproq urgʻu berish mumkin.

10. “A” va “V” toifali ruxsat klasslari uchun cheklovlar boʻlimining “Tashkilotlarning faoliyat turlari boʻyicha beriladigan klasslar va ruxsatlar tizimi” jadvali turkumlar (seriya), turlar va guruhlar boʻyicha havolalarni oʻz ichiga oladi. “Turkum” soʻzi bir xil turdagi havo kemalarning va/yoki dvigatellarning toʻplamini anglatadi, jumladan, Airbus 300, Airbus 320 yoki Boeing 737 yoxud RB211. Bunday turkum yoki turlarning har qanday soni koʻrsatilishi mumkin. “Tur” soʻzi aniq bir tur yoki modelni bildiradi, misol uchun Airbus 310-240 yoki RB 211-524B4. “Guruh” esa, jumladan, “Cessna” porshenli bir dvigatelli samolyotlar yoki “Lycoming” turbinasiz porshenli dvigatellar va boshqalarni anglatadi.

11. Ishlab chiqarish imkoniyatlarining tez-tez oʻzgartirish kiritib boriladigan kengaytirilgan roʻyxatiga “Oʻzaviatsiya” agentligi bilan kelishilgan va faoliyat boʻyicha qoʻllanmada aks ettirilgan tartib-taomillarga muvofiq oʻzgartirishlar kiritilishi lozim.

Ushbu tartib-taomillarda ishlab chiqarish imkoniyatlari roʻyxatini (capability list) yuritish, oʻzgartirishlarni kiritishni nazorat qilish va buning uchun zarur boʻlgan harakatlarni amalga oshirish boʻyicha javobgar shaxs belgilanishi kerak. Mazkur harakatlar roʻyxatga kiritiladigan mahsulotlar va

ishlar turi mazkur Pasportda belgilangan talab va shartlarga muvofiqligini ta'minlaydi.

12. Barcha texnik xizmat ko'rsatish ishlarini rejalashtirish va bajarish uchun faqat bitta xodimni yollaydigan tashkilot ishlar turi bo'yicha chegaralangan ruxsatlar soniga ega bo'lishi mumkin. Ruxsat beriluvchi chegirmalar quyidagilardan iborat:

KLASS	TOIFA	BERILGAN RUXSAT
Havo kemasi	A2 samolyotlar	Uchish massasi dan yuqori bo'lmagan porshenli samolyotlarga operativ va davriy texnik xizmat ko'rsatish
Havo kemasi	A2 ruxsati — samolyotlar	Gaz turbinali dvigatellar o'rnatilgan, uchish massasi 5 700 kg dan yuqori bo'lmagan samolyotlarga operativ texnik xizmat ko'rsatish
Havo kemasi	A3 ruxsati — vertolyotlar	Uchish massasi 3 175 kg dan yuqori bo'lmagan, bir dvigatelli vertolyotlarga operativ va davriy texnik xizmat ko'rsatish
Havo kemasi	A4 A1, A2 va A3 toifalariga taalluqli bo'lmagan havo kemalari	Cheklanmagan
Havo kemasi	V2 porshenli dvigatellar	Quvvati 450 ot kuchidan past
Komponentlar (yig'ilgan holdagi asosiy aviatsiya dvigateli va yordamchi kuch qurilmasi bundan mustasno)	S1 ...S20 komponentlar	Ishlab chiqarish quvvatlarining ro'yxati bo'yicha
Maxsus ishlar	D1 — putur yetkazmasdan nazorat qilish	Putur yetkazmasdan nazorat qilish turlari ko'rsatiladi

Muayyan tashkilotning ishlab chiqarish imkoniyatlariga qarab, bunday tashkilotga "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan tasdiqlangan faoliyat sohasiga nisbatan qo'shimcha cheklovlar qo'yilishi mumkin.

Tashkilotlarning faoliyat turlari bo'yicha beriladigan klasslar va ruxsatlar tizimi jadvali

KLASS	BERILGAN RUXSAT		CHEKLOVLAR	DAVRIY TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH	OPERATIV TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH
	Toifa	Aviatsiya texnikasi yoki ishlarning turi			
HAVO KEMALARI	A1	Uchish massasi 5 700 kg dan yuqori	Havo kemasi turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan		

			bo'lgan samolyotlar	texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
		A2	Uchish massasi 5 700 kg dan yuqori bo'lmagan samolyotlar	Havo kemasi turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
		A3	Vertolyotlar	Havo kemasi turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
		A4	A1, A2 va A3 toifalariga taalluqli bo'lmagan havo kemalari	Havo kemasi turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
	AVIATSIYA DVIGATELLAR I	V1	Gaz turbinali dvigatellar	Dvigatellarning turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
		V2	Porshenli dvigatellar	Dvigatellarning turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
		V3	Yordamchi kuch qurilmalari	Qurilmalarning turkumi yoki turi va/yoki bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish turlari ko'rsatiladi		
	KLASS	BERILGAN RUXSAT		CHEKLOVLAR	ATA / GOST 18675 bo'yicha kod	
		Toifa	Aviatsiya texnikasi yoki ishlarning turi			
	DEMONTAJ QILINGAN KOMPONENTLAR, YIG'ILGAN HOLDAGI ASOSIY AVIATSIYA	S1	Kema kabinasini konditsionerlash va bosimini boshqarish tizimlari	Havo kemasi va/yoki komponentlar yoxud aniq komponentlar va/yoki tashkilotning	21	

DVGATELI VA YORDAMCHI KUCH QURILMALARI BUNDAN MUSTASNO	S2	Avtopilot	faoliyat bo'yicha qo'llanmasida ishlab chiqarish imkoniyatlari ro'yxati bilan o'zaro havolalari va/yoki bajariladigan texnik xizmat turlari ko'rsatiladi	22
	S3	Aloqa va navigatsiya jihozlari		23, 34
	S4	Eshiklar va lyuklar		52
	S5	Elektr toki bilan ta'minlash tizimlari		24
	S6	Maishiy va maxsus jihozlar		25, 38, 45
	S7	Dvigatel va yordamchi kuch qurilmalari tizimlari		49, 71 — 83
	S8	Havo kemasini boshqarish tizimlari		27, 55, 57
	S9	Yonilg'i — planer tizimi		28
	S10	Vertolyotnin g asosiy vintlari		62, 64, 66, 67
	S11	Vertolyotnin g transmissiyas i		63, 65
	S12	Gidrotizimlar		29
	S13	Asbob- jihozlar		31
	S14	Shassi		32
	S15	Kislorod jihozlari		35
	S16	Havo vintlari		61
	S17	Pnevmozim lar		36, 37
	S18	Muzlashga qarshi va yong'inga qarshi tizimlar		26, 30
	S19	Derazalar		56
	S20	Planerning konstruksiyas i		53, 54, 57

MAXSUS ISHLAR TURI	D1	Putur yetkazmasda n nazorat qilish	Aniq ishlar yoki ish va xizmatlar turi koʻrsatiladi
	D2	Payvandlash va hokazo	Aniq ishlar yoki ish va xizmatlar turi koʻrsatiladi
* Qoʻpol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.			